

Zamonamiz aybsiz aybdorlari

yoxud Sherzod Shermatovga yashirin xat!

Kamsonli nemis va fransuz tili o'qituvchilarini norizo etmang. Bizning mehnatlarimizga bepisand bo'lish mumkindir, ammo o'quvchi istaklarini pisand qilmaslik mumkin emas!

2-bet

Ta'lim va koronavirus karantin davri va undan so'ng

Pandemiya sababli yuzaga kelgan vaziyat, qolaversa yozgi ta'til davrida uzoq vaqt bolalarda kundalik tartibning izdan chiqishi kelgusi jarayonga moslashish uchun asosiy muammo hisoblanadi.

5-bet

Ta'limdagi "ko'tarish" va "tushirish" tamoyillari

yangi pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash borasida ayrim mulohazalar

8-9-betlar

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 8-iyul, chorshanba № 23 (9296)

Xalq ziyolilari gazetasi

Jamiyatning ta'limga munosabati o'zgarishi kerak

Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishi lozim.

Shavkat MIRZIYOYEV



Bog'chada ham, maktabda ham, OTMda ham mashg'ulotlarda doimo bir kishi o'rgatgan, boshqalar eshitgan va yozib olgan. Bu usul turmush tarzimizga ham ko'chib o'tgan. U o'zgarimas ekan ta'limda ham, jamiyatda ham jiddiy o'zgarishlar bo'lishi qiyin.

3-bet

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)



Ushbu sonda fizika, matematika, va tarix fanlaridan test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo'lishni unutmang!

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



O'tgan hafta maxsus komissiya ustamani aniqlash bilan band bo'ldi. Jarayonda ayrim muammo va kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlandi. Masalan, o'quvchilarning bilimlar bellashuvi va olimpiadalarda qatnashuviga qarab ball qo'yish... Agar bu tanlovlar umuman o'tkazilmagan bo'lsa-chi? Sinf rahbarligi bo'lmagan pedagoglar ham yutqazmoqda. Ota-onalardan anketa orqali aniqlanadigan baholash ham faqat qogo'zbozlikdan boshqa narsa emas. Gazetalarni oxirgi paytlarda o'qituvchilar tomonidan buyurtma qilingan maqolalar "bosib ketdi". O'qituvchi — avvalo, ta'lim beradigan shaxs. Uning faoliyati samarasini faqat o'quvchilarning bilim darajasi bilan o'lchash kerak. 823-qarorning bandlari yana bir marta ko'rib chiqilishini so'ragan bo'lardim.

Abdug'afur SATIMOV

Xalq ta'limi tizimida o'qituvchilarning malakasini tekshiradigan testlarning ko'payishi korruptsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Qolaversa, o'qituvchi testlardan bezib qolmoqda. Yuklama kamaytirilganiga xursand bo'lgan edik, ammo testlardan charchadik.

Maqsuda BO'RON qizi

1980-90-yillarda maktabimizdagi barcha sinfxonalarga ikki tomonlama aloqa qilish imkonini beradigan radiouzel o'rnatilgan edi. Bu orqali sinflardagi dars jarayonini kuzatish mumkin bo'lgan. Keyinchalik 8 ta xonaga videokamera o'rnatildi. Maktabga kelgan istalgan odam direktor ruxsati bilan bu xonalardagi dars jarayonini ko'rishi mumkin edi. Buning ta'lim sifati yaxshilanishi, o'quvchilarning tartib-intizomini kuchaytirishda foydasi tekkan. O'qituvchilarning ham mas'uliyatini oshiradi. Videokameralar pedagogikaga also zid emas. Buning yaxshi tomonlari bisyor!

Xushnud SOBIROV

Zamonamiz aybsiz aybdorlari

yoxud Sherzod Shermatovga yashirin xat!

Bir necha maqola, tezis, felyeton, dars ishlanmalari muallifman. Lekin ko'pam "layk" olavermayman. O'zim haqimda qisqacha aytmasam, meni tushunishingiz qiyinroq bo'lishi mumkin. Nemis tilidan dars beruvchi o'qituvchi Marhaboman. Qishloqda katta bo'lganman. Bolaligim, ya'ni men aniq eslaydigan paytlar 1991-yildan boshlangan. Mustaqilligimizning ilk shabdalari esgan yillar!

Hali "mustaqillik, erkinlik" so'zlarini irod qilmagan yillarimiz. Ish ko'p edi uyimizda, mol-hol, fermer xo'jaligimizdagi 20-30 gektar yer, undagi bug'doy, arpa, no'xat, zig'irlarni o'roqda yig'ib olish — hozirgi yoshlarimiz tasavvuriga ham sig'masa kerak bunday ishlar. Faqat va faqat ilm meni bu og'ir mehnatdan ozod aylaydi, deb o'ylardim. Nemis tiliga mehri bo'lakcha edi. Akamga ham ish ko'p edi. Abituriyent edi. Axborotnomalar ustida uxlab qolardi. Shu testlar qora qalam bilan belgilansa, akam talaba bo'ladi deb o'ylab, bittagina, u ham bo'lsa yirtiq-yamoq grammatika kitobini o'zlashtirib, testlarni yechib qo'yardim. O'qishga tayyorlanishga darslikdan boshqa manbaning o'zi

yo'q edi. Darsliklarning orqa varaqlarida berilgan lug'atlarini, vale "tuzatish"larni-da yodlab, mol boqardim. Qo'ramiz yog'och ustunlarida hali ham qiyin nemischa so'zlar yozilgan turibdi, eslab kulib qo'yaman.

Hozir "ko'zlarim faqat sizning ko'zlaringizdek bo'lishini istayman" degich, uylariga rasmimni ilgich bolalar ustoziman. Hayotda nimagaki erishgan bo'lsam, nemis tilini o'rganganim sababdir.

Nemis tilining maktablardagi taqdiri ommaviy axborot vositalarida ko'p yoritilgan. Lekin yozgan maqola-yu, muammolarimiz egasiga yetib bormayapti. Nemislarda bir gap bor: "Ba'zi odamlar quloqlari kesib

tashlanmaguncha eshitmaydilar". Alhol, bizning muammo kerakli joyga yetib bormagan, deb yashirin xatimda muhtaram Vazirimiz bilan sirlashgim keldi. Dardlarimni Vatanini jondan sevadigan, mehri ham, muhabbati ham kasbi uchun sovrilgan bir ustozning ichki kechinmalari deb to'g'ri qabul aylashingizni istab qolardim.

— Yur, bog'larni kezamiz! — desalar, — O'qib olay, keyin... — derdim.

— Yur, Chimyonga boramiz! — desalar, — "GOS"ni halollob topshirib olay, keyin! — derdim.

— Yur, bayramga bayroqdor bo'lamiz, xalq artistlarini ko'ramiz! — derdilar. — Vaqt ketadi, o'qib olay! — derdim.

— Joyingdan qimirlama, yoningdagi yigit bilan tanish, yaqinda to'ying! — dedilar. — Nemischi bilsa, tegaman! — dedim dangal.

Ha, shunaqa, nemischa kitobni quchoqlab hayotimning gulgun onlarini o'tkazib yuboribman. Bu til menga umrim bahorini eslatib turadi. Uni sevaveraman, sevaveraman. Nega bugungi kunda mening sevgim rad bo'lmoqda? Ayol kishi bo'lsam-da, yigitlardan kam emas g'ururim! Buni kirza etik kiyib, ot choptirib yurganimda sezganman. Na qilayki, asli nomimiz bo'lmish ozijligimga boraversam-da, hech vaqt ojiz tomonim bildirmayman, faqat yaqin do'stim sifatida sizdan shuni so'ragim keldi: ta'limda nega bir tillilik targ'ib qilinyapti? So'nggi paytlarda biz nemis va fransuz tillari o'qituvchilari tarmoqda mavjudligimiz ham unutilmoqda. Bunga onlayn darslarda biz-

ning fanimiz qo'yilmasligi isbotdir. Hayronman, shunday samimiy, shunday xizmatga shay bir xodimingiz ketishiga qanday ko'zingiz qiyadi? Betgachoparlikda ayblang, haqdirsiz?! Mening tarbiyamda "faqir panada" deb yurguvchi ustozimiz G'aybulla as-Salom, Sadridin Salim Buxoriy, Mirzaali Akbarov, Muhiddin Sattorov o'g'itlari bor.

Sizga iltimosim, kamsonli nemis va fransuz tili o'qituvchilarini norizo etmang. Mehr qo'yib o'rganganlarimizni mehr bilan o'rganishni istayotganlar hali bisyor. Bizning mehnatlarimizga bepisand bo'lish mumkindir, ammo o'quvchi istaklarini pisand qilmaslik mumkin emas!

Jizg'anak bo'layotgan ufqqa qarab miyig'ida kular iztirob...

Biz ufqdirmizku, bizning ahvoliymizdan iztirob chekayotgan bo'lsangiz ne ajab?!

Chuqur ehtirom ila yurtimizdagi barcha nemis va fransuz tillari o'qituvchilari nomidan

Marhabo SATTOROVA,
Nurota tumanidagi
14-maktab o'qituvchisi

O'qituvchi minbari

Maktablarda ona tilini o'qitishda keng imkoniyatlar yaratilgan, ammo ayrim muammo va kamchiliklar ham mavjud. Xususan, ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarning 10-11-sinflarida tayanch o'quv rejada haftasiga 2 soat ona tili, 2 soat adabiyot, 2 soat rus tili, 3 soat ingliz tili dars taqsimoti berilgan.

Ona tili uchun bir soat yetarlimi?

Ammo bizning Qorqalpog'iston Respublikasi sharoitida davlat tili qoraqalpoq tiliga ona tili sifatida haftasiga 1 soat ajratilgan. Shubhasiz, savol tug'iladi: **chet tiliga haftasiga 3 soat, ona tiliga esa 1 soat dars taqsimlanishi o'quvchilar tasavvurida o'z tilining nufuzi pasayishiga sabab bo'lmaydimi?**

Abituriyentlar uchun majburiy uchta fanning birinchisi hisoblangan ona tili fani haftasiga 1 soat o'qitilsa bola fanni yuqori saviyada o'zlashtira oladimi? O'z ona tilini chuqur bilmagan o'quvchi chet tillarni o'zlashtirib, yaxshi mutaxassis bo'la oladimi? Bu kabi o'qituvchilarni qiynayotgan muammolarni Xalq ta'limi vazirligi va tegishli mutasaddilar ijtibiy hal qilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoiti uchun ona tili faniga qo'shimcha dars soati ajratilishi maqsadga muvofiq. Chunki ona tili fanining qisqarishi oqibatida tajribamizda kuza tilayotgan qator muammolar yanada avj oladi. Jumladan:

1. Bolaning haftasiga 1 soat dars o'tiladigan fanga bo'lgan qiziqishi, tabiiyki,

haftasiga 2 yoki 3 soat o'qitiladigan fanga nisbatan sust bo'ladi.

2. Ommaviy savodxonlik siyosati olib borilayotgan davrda bu muammo ona tili nufuziga putur yetkazadi, o'quvchilar savodxonligini pasaytiradi.

3. Har bir darsda ikkita mavzu o'tishga majbur bo'lasiz. Mashqlarni bajarishga vaqt taqsimoti yetmaydi. Ko'p yozish bolani darsda zeriktirib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va jarayon ikki karra tezlashgani bois o'quvchida yuklama ortadi. Bu esa mavzuni qabul qilish, o'zlashtirish darajasini susaytiradi.

4. O'quvchining ona tili fanidan haftasiga 1 soat olgan bilimi uning oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tishi uchun kamlik qiladi. Agar ona tili faniga ajratilgan dars soati ko'paytirilsa, o'quvchi repetitorga bormaydi, natijada maktabdagi davomat yaxshi bo'ladi, ota-ona ortiqcha mablag' sarflamaydi.

Xosiyat HAMROYEVA,
Ellikqal'a tumanidagi
66-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Aks-sado

Sinf rahbarlik mas'uliyati

"Ma'rifat" gazetasi chin ma'noda o'qituvchilar uchun yo'lboshlovchi mayoq vazifasini o'taydi. Gazetaning 20-sonida e'lon qilingan "Ustama olishga kim haqli?" sarlavhali maqolada o'qituvchi uchun foydali takliflar bor ekan.

AKTdan samarali va unumli foydalanish ko'nikmalari uchun mezon belgilansa, albatta, juda yaxshi bo'ladi. Bugungi avlod deyarli shu texnika bilan birga ulg'aymoqda. Buning yaqqol misolini o'quvchilarning onlayn darslarda faol ishtiroki orqali ko'rdik. Ustama olishga davogarlik qilayotgan o'qituvchi AKTdan foydalanishni yetarli darajada bilishi shart.

Maqolada sinf rahbarlikka ajratilgan qism keraksiz ekanligi ta'kidlangan. Sinf rahbarlari maktabning bog'bonlari desak yanglishmaymiz. Bir sinfda o'ttiz, yonki undan ham ortiqroq o'quvchi bo'lishi mumkin. Shuncha xarakter, shuncha qarash, o'ziga yarasha muammosi bor bu qora ko'zlar bilan mana shu sinf rahbarlari shug'ullanadi. Bir stavka darsi bor o'qituvchi agar sinfi bo'lmasa, o'zi uchun belgilangan darsni o'tadi. Yelkasida yuki o'z kasbiga fidoyilikdan iborat bo'ladi. Sinf rahbarining yelkasidagi yuk o'quvchi taqdiriga uzviy bog'liqdir. Yana bir haqiqat borki, mana shu o'quvchi qalbidan bir umr sinf rahbari muhrlanib qoladi. Har qanday inson maktab davrlarini eslasa, beixtiyor uning xotiralarida shu ustoz gavlalanadi.

823-qaror maktabda o'mak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. O'z o'quvchisi uchun bir umr o'mak bo'la olgan sinf rahbari



nahotki 15-20 ball uchun arzimasa, albatta bu mening fikrim, sababi esa bugun mening ustoz darajasiga yetishishimga turtki bo'lgan sinf rahbarim. Sinf rahbari sifatida shuni aytishim mumkinki, har qanday sinf rahbari o'quvchilarining taqdiriga befarq bo'lolmaydi.

Sinf rahbarligi mavjud bo'lmagan o'qituvchi yoki xodim uchun ushbu mezonning ichida ball to'plash imkoni yetarli bo'lmasa, mutasaddilar biror o'zgarishlar kirgizishi mumkin. Albatta, buning uchun takliflar bersak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nigora AZIZOVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi
29-maktab o'qituvchisi

Aks-sado

Jamiyatning ta'limga munosabati o'zgarishi kerak

Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishi lozim.

Sh. MIRZIYOYEV

"Ma'rifat" gazetasida chop etilgan "Xalq ta'limi vaziriga ochiq xat" va unga bildirilgan munosabatlarni o'qib o'z fikrimni bildirishni lozim deb topdim. Chunki yurtimiz, bolalarimiz kelajagiga daxldor ta'lim sifatini o'zgartirish maqsadida bildiriladigan fikrga befarq bo'lmasligimiz lozim. Albatta, ta'lim sohasida bizdan oldinlab ketgan mamlakatlar tajribasini o'rganishimiz va ularning barcha yaxshi tomonlarini qabul qilishimiz maqsadga muvofiq. Lekin bu bizga ko'pi bilan ular erishgan tezlikka erishish imkonini beradi xolos. Ularning bugungi ko'rsatkichlariga erishishimiz uchun muayyan vaqt kerak. Bu vaqtda esa ular biz yeta olmaydigan darajada oldinga ketib qolishadi. Shuning uchun ham bizga ularnikidan ham mukammalroq, o'z-o'zini takomillashtira oladigan, "ilg'or pedagogik texnologiya" zarur. Bunday takomillashtirish tizimini esa "kadrlar bozori"dagi raqobat, uni esa o'z navbatida ishlab chiqarishga joriy etilishi kerak bo'lgan "ilmiy-texnik yutuqlar" raqobati vujudga keltirishi mumkin.

Xalq turmush tarzini yaxshilashning yagona yo'li ishlab chiqarish unumdorligini oshirishdir. Bu esa ishlab chiqarishga fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlarini joriy qilishni, bunday texnologiyalar bilan ishlashni biladigan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Ular naafaqt yangi texnologiya bilan ishlashi, balki ularni takomillashtirish, ya'ni ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari kerak.

Yaqinda Prezidentimiz borib ko'rgan O'zbekiston-Koreya xalqaro universitetida o'qitish "ilg'or o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha olib boriladi". Ular qanday yaratilgan? Bularning hammasini ishlab chiqarish va ta'lim sektorining xususiylashuvi vujudga keltirgan. Natijada "diplomli" mutaxassislarga emas, ilmiy mutaxassislarga talab ortadi. "Kadrlar bozori" va demak, ularni tayyorlovchi ta'lim muassasalari orasida raqobat vujudga keladi. Sifatini ta'minlovchi yagona omil bu raqobatdir. Aynan shu raqobat:

- 1) Ilg'or o'quv dasturlari va rejalari;
- 2) Ilg'or o'qitish metodlarini, bu metodlar bilan qurollangan o'qituvchilarni, talablarga mos o'quv adabiyotlarini;
- 3) Kadrlar sifatini baholash tizimini vujudga keltiradi va ular ijodiy fikrlovchi mutaxassislar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Ana shunday raqobat sharoitidagina "Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qiydigan bo'ladi". Bugun esa real holat qanday?

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari, boshlang'ich sinf o'quvchilari yaxshi o'qisha barcha orzulariga erishishi mumkinligi haqidagi o'g'itlarimizga to'la qo'shilishadi. Le-

kin ular 5-sinfga o'tib, katta bo'lganlik, o'zining boshqalar tomonidan tan olinishini xohlash hissiyoti paydo bo'lishi bilan ko'p narsa o'zgarib ketadi. Yaxshi yashaydigan (uy-joyi yaxshi, bir nechta mashinasi bor, doimo chet ellarga borib keladigan) kishilardak bo'lishni orzu qiladilar. Buning uchun ularni ayblashga haqqimiz yo'q (o'z paytida biz ham shunday qilganmiz).

Xo'sh, ular kimlarga taqld qilishadi? Birinchi navbatda ommaviy axborot vositalarida ko'rsatilayotgan yulduzlarga, xonandalar, sportchilar, artistlarga. O'z atroflarida-chi? Savdo xodimlari va yana... kimlarga. Lekin har holda olimlar va o'qituvchilarga emas. Garchi oxirgi uch yilda nimalardir o'zgartgan bo'lsa-da, hali jamiyat o'zining eng noyob qadriyatlarini tanlab ololgan yo'q. Bu esa ta'limning e'zozlanishiga to'sqinlik qilib turgan eng katta omildir.

9-11-sinflar o'quvchilari OTM-ga kirish ishtiyogi, yaxshiroq (keyingi davrda yaxshi yashashni ta'minlaydigan), yoki kirish ballari past bo'lgan ixtisoslikni tanlash (asosan pedagogika, tabiiy fanlar) bilan mashg'ul bo'ladi. Lekin bilim olish bilan emas.

OTMga kirib qolgan talaba endi uni bitirib olish va yaxshiroq ishga joylashish ilinjida yashaydi. Olimlar va o'qituvchilar eng yaxshi yashamaydilar. Demak, eng yaxshi bitiruvchilar ham bu sohalariga kelmaydilar. Har holda oxirgi o'ttiz yil davomida shunday bo'lgan va hozir uning "achchiq" mevasini tatib turibmiz. Ilojsiz kelganlarning niyatlari ham o'zgacha bo'ladi.

OTMlarga talabalarni qabul qilish jarayoni — ta'lim tizimi va jamiyat rivojidagi eng katta to'siqlardan biri bo'lib qolgan. Munozara ishtirokchilaridan biri qayd etganidek, test savollari o'quv adabiyotlariga, DTMning o'zi qabul qilgan kodifikatorlarga ham mos kelmaydi. Bu haqda "Ma'rifat"da 2019-yili chiqqan "Fizikadan abituriyentlarning bilimlari nega past" nomli maqolamizda, "@yangifizika" kanalida ko'p fikr bildirganmiz va DTM mutaxassislari bilan yuzma-yuz uchrashuvlarda ham aytganmiz. Umuman olganda, xususiy oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonida DTMning xizmatiga ehtiyoj bo'lmaydi va muammo o'z-o'zidan yechiladi.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalarining muallifi sifatida ularning yaratilishiga o'txalishni lozim topdik. Ustoz Valijon Qodirov yozganlaridek, dasturlar

Muallif sifatida olgan barcha gonorlarimni hisoblab chiqsam unga bitta "Matiz" ham ololmas ekanman. Ammo ularni tayyorlash uchun ketgan xarajatlarga "Matiz" olsam bo'larkan. Ba'zilar esa bir kunda bitta "Matiz"ning pulini topa oladi. Buni biz ilm-fan bilan shug'ullanishini istagan, lekin yaxshi yashashni xohlaydigan o'quvchilarimiz ham ko'rib turishibdi.

Xalq ta'limi vaziriga navbatdagi ochiq xat



Hurmatli Sheroziy Hoshimov! 12-yan jarayonidagi o'qitish uchun muayyan vaqt kerak. Bu vaqtda esa ular biz yeta olmaydigan darajada oldinga ketib qolishadi. Shuning uchun ham bizga ularnikidan ham mukammalroq, o'z-o'zini takomillashtira oladigan, "ilg'or pedagogik texnologiya" zarur. Bunday takomillashtirish tizimini esa "kadrlar bozori"dagi raqobat, uni esa o'z navbatida ishlab chiqarishga joriy etilishi kerak bo'lgan "ilmiy-texnik yutuqlar" raqobati vujudga keltirishi mumkin.

kinlardir tomonidan tayyorlanadi va ma'lum muddatda, belgilangan qolip asosida unga mos o'quv adabiyotini yaratib berish talab qilinadi. Bu hol esa muallifga erkin ijod qilish imkonini bermaydi va natijada darslik ko'ngildagidek chiqmaydi. Lekin ulardagi xato va kamchiliklar so'zsiz mualliflarning aybidir. Shu bilan birga masalaning yana bir tomoni bor. Muallif sifatida olgan barcha gonorlarimni hisoblab chiqsam unga bitta "Matiz" ham ololmas ekanman. Ammo ularni tayyorlash uchun ketgan xarajatlarga "Matiz" olsam bo'larkan. Ba'zilar esa bir kunda bitta "Matiz"ning pulini topa oladi. Buni biz ilm-fan bilan shug'ullanishini istagan, lekin yaxshi yashashni xohlaydigan o'quvchilarimiz ham ko'rib turishibdi.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasining 1030-qaroriga muvofiq ilmiy darajali mutaxassislarga ustama belgilandi. Unda "Skopus" jurnallarida chop etilgan har bir maqolaga yil davomida 15 foiz ustama berilishi aytilgan bir paytda, darslik va o'quv qo'llanmalar mualliflariga ustama belgilanmadi.

Internet tarmog'ini ochsangiz "mana buncha to'lov qilsangiz maqolangizni tahrirlaymiz, tarjima qilamiz va qisqa muddatda "Scopus" jurnallarida chop etamiz" degan o'nlab e'lonlarni ko'rasiz. Nahotki shu usulda chop etilgan maqola mualliflarining (ular o'ntagacha bo'lishlari mumkin) mehnati bir necha yillar davomida yaratilgan va ta'lim uchun "eng asosiy vosita" bo'lgan darslik yoki o'quv qo'llanma yaratilishidan mashaqqatliroq bo'lsa? Shundan keyin darslik mualliflaridan nimani ham talab qilish mumkin?! Chet ellarda darslik mualliflari oladigan gonorlar haqida yozish ham noqulay.

Albatta, ta'lim jarayonini o'zgartirishda Xalq ta'limi vazirligining o'rni katta. Lekin bundan 3 yil burun aytish mumkin bo'lmagan gaplarni bot-bot takrorlash ta'limga hech narsa bermaydi. U gaplar yangi emas. Faqat hozir bu gaplarga munosabat o'zgartgan xolos. Bugungi kunda XTV va Respublika ta'lim markazining asosiy vazifasi fan o'qituvchilariga amaliy yordam berish, ularni ta'limning yangi ilg'or usullari bilan qurollantirish, "raqobat bozorida" faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Aks holda o'quvchilarni, ularni faqatgina DTM testlariga javob topishga o'rgatadigan repetitorlar iskanjasidan qaytarib olish qiyin bo'ladi. Buning uchun esa o'qituvchilar va o'quvchilar mustaqil ravishda o'z bilimlarini oshirishlari, ya'ni mustaqil ravishda bilim olishlarini ta'minlaydigan o'quv adabiyotlari zarur.

Biz o'z paytida o'quvchilarni repetitorlardan ajratish maqsadida o'qituvchilar va OTMlarga kiruvchilar uchun Fizikadan 3 qismdan iborat ta'limlanma tayyorlagan edik. Ularni takomillashtirish maqsadida 5000 nusxasini (yuz million so'mlik) Respublikadagi umumta'lim maktablarining fizika fani o'qituvchilariga tarqatish va ularning fikrlarini o'rganishni taklif qildik. **Vazirga yuborgan xatimiz va qo'llanma namunalarini qariyb ikki oy davomida qayerlardadir chang bosib yotdi.** Va nihoyat, qayta-qayta qilgan murojaatlarimizdan keyin yordamchilaridan "qo'llanmalar talabga javob berishi" va ularni tarqatish uchun Respublika ta'lim markaziga taqdim etish to'g'risida javob oldik. Qo'llanmalar RTMda yarim yil davomida, mazkur mutassasa mutasaddilarining iboralari bilan aytganda, "ortiqcha yuk sifatida chang bosib yotdi".

Va nihoyat, boshqa ishga o'tgan vazirning birinchi o'rinbosari yordamida qo'llanmalar tarqatildi degan ma'lumot oldik. Bizga 150 ga yaqin o'qituvchidan "qo'llanma bizga juda ma'qul, qo'llanma uchun rahmat" degan ma'noda, ruhimizni ko'taruvchi xabarlar keldi. Lekin qo'llanmalarining qolgan qismi qayerdaligi, o'qituvchilarning ular to'g'risidagi taklif va mulohazalarini bilolmadik. Biz uchun shu mulohazalar muhim va qo'llanmalarini takomillashtirish uchun zarur edi. **Bu axir Xalq ta'limi vazirligining va Respublika ta'lim markazining bevosita vazifasi emasmi?**

Shuning uchun ham maqolada ko'tarilgan muammolarning asl yechimi, fikrimizcha, ancha chuqurroq. Ularni hal etish uchun jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati o'zgartirilishi kerak. **Bog'chada ham, maktabda ham, OTMda ham mashg'ulotlarda doimo bir kishi o'rgatgan, boshqalar eshitgan va yozib olgan. Bu usul turmush tarzimizga ham ko'chib o'tgan. U o'zgartmas ekan ta'limga ham, jamiyatda ham jiddiy o'zgarishlar bo'lishi qiyin.**

Abduqahhor G'ANIYEV,
Fizika-matematika fanlari nomzodi,
dotsent


Fikr

● Bir ma'lumotga ko'zim tushib qoldi: nepallik 8-sinf o'quvchisining yozuvi dunyodagi eng chiroyli yozuv deb topilibdi. Buni o'qdim-u, yurtimizda bundan-da chiroyli husnixati bor o'g'il-qizlarimiz haqida o'yladim. Shunisi aniqki, o'sha chiroyli yozuv bo'yicha o'tkazilgan bahsda g'olib bo'lgan bolaning ma'naviyati va ichki olami ham go'zal ekaniga ishonaman. Boisi, insonning ichki olami qaysidir ma'noda uning yozuvida ham namoyon bo'ladi. Chiroyli yozuv inson ko'zini quvontiradi, atrofdagilar e'tiborini jalb etadi. Har bir xalqning uzoq yillik tarixi, madaniyati, ma'naviyati ham o'zining yozuvi bilan bog'liq. Ajdodlarimiz qalamiga mansub ko'plab ma'naviy yodgorliklar arab yozuvida bitilgan.

Chiroyli husnixatning qadri

Hozirgi zamon psixologlari yozuv sohibiga ta'rif berishda uning husnixatiga ham tayani-shadi. Masalan, bola yozayotganda qo'li titrab ketsa, u talabchan, go'zallikka mehri baland, dangal, ayni vaqtda nimadandir qo'rqayotgani aytiladi. To'g'ri shaklda yozayotganlar xarakterida qo'ruv yo'q. Yozuv aniq, o'qishga oson, harflar bir-biriga bog'langan bo'lsa, bu inson mehnatkash, ishlarni chin dildan qila oladi, ba'zi-da pessimist bo'lishi taxmin qilinadi. Bunday kishilar gohida ochiq gapirib, qo'pollik ham qilib qo'yishadi. Chap tomonga og'ishtirib yozish esa erkin emaslik, doimiy xarakteri yo'q, aniq qadam qo'ya olmaydiganlar toifasiga kirar ekan. Kichik varaqqa ko'p narsa sig'dirish (tejamkor usul) — buning iqtisodga daxli yo'q. Aynan shunday yozadiganlarga o'zboshimchalik yot bo'ladi. Tez va chiroyga kam e'tibor berib yozish — bu odamning ishi yozishni ko'p taqozo qiladi va u ko'p vaqtlarda biror joydan ko'chirib emas, o'zi o'ylab, ichidan to'qib yozadi.

Buni qarangi, husnixatning tashqi qiyofamiz bilan bog'liq jihatlari ham bor ekan. Baland bo'lyi insonlar, deyarli hech vaqt bo'g'in ko'chirib o'tkazmaslikka harakat qiladi, yozuvda chalkashlik yo'q, chiziqilar tortilmagan toza oq qog'ozga ham bir tekisda, chiroyli yoza oladi. Past bo'lyi insonlar, so'zni to'liq yozishga joy yetsa ham bo'g'in ko'chirish odati bor, harf va so'zlarni cho'zibroq yozishadi, ilmoqlarni uzum-uzun qo'yishadi. Qora sochli insonlar ulardan farqli ravishda, qator chizilmagan qog'ozga bir tekis yoza olishmaydi, ko'pincha yozuvlari tepaga qarab chiqib ketadi. Shunga qaramay, chiroyli yozishga urinishlar sezilib turadi. Ular bosh harflarni ajratib ko'rsatishni xohlashadi, ba'zan



keraksiz joyda ham bosh harfni ishlatadi. Davlat ishida ishlovchi kishilar harflar formasiga e'tiborsiz yozishadi. Pala-partish yozadiganlar esa ko'pincha ishchi, hunarmand, xizmatchilar bo'ladi. Katta-yu kichikning bo'y-basti va xarakteri qanday bo'lmasin, uning savodi, husnixati va qalbi chiroyli bo'lsa bas.

Yaqinda nabiram bir so'zning qanday yozilishini so'rab qoldi. Javobimni eshitgach, "Bu yerda "ho'p" deb yozilgan-ku", dedi husnixat daftarini ko'rsatib. Men hali jo'yali izoh topishga ulgurmay, keyingi xatoni ko'rsatdi: "Quvonib" so'zida ham "n" ketib qolgan". Daftarni varaqladim. M.G'ulomov, I.Radjabova (familiya shunaqa yozilgan). B.Jalilov muallifligida 15 ming nusxada chop etilgan "Chiroyli yozuv daftari" (2-sinf) 19-betida "quvonib xo'p" so'zlari "quvoib ho'p", 37-betda "osoyishtalik" so'zi "asoyishtalik", "obodonchilik" so'zi "obodonchlik", 42-betda "qiyg'os" so'zi "qiyos" tarzida xato ketganini ko'rib ta'bim xira bo'ldi. Zero, husnixatning qadri savodiligi va bexatoligi bilan belgilanadi.

Zulfiya NURMETOVA,
Yashnobod tumanidagi
204-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Munosabat

"Fanlar shohi"ning shoxi sinmasin

● Fanlar orasida eng muhimi, eng keraklisi qaysi, sizningcha? Albatta, har kim o'zi daxldor bo'lgan fanni birlamchi hisoblaydi. Keraksiz fanning esa o'zi yo'q. Lekin oddiy bir haqiqatni tan olish kerak: matematika barcha zamonlarda "fanlar shohi" deb bejiz qadrlanmagan. Har qanday fanni suv qilib ichib yubora olaman deb maqtanuvchi kishilar ham matematika o'zlashtirilishi eng qiyin fan deya e'tirof etishi bor gap. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Yashirib nima qildik, mamlakat miqyosida olamizmi yoki, masalan, bizning tog'li tumanimizdagi olis qishloq maktablarida ham farzandlarimizning matematika faniga qiziqishi, bilim darajasi ancha pasayib ketgan edi. Bu borada tajribali ustozlar katta-kichik yig'ilish, anjumanlarda, jumladan, matbuot sahifalarida tashvishlanib bong urib kelishdi. Lekin o'zgarishlar juda sekinlik bilan davom etardi. Xulosa qanday bo'ldi? Demak, vaziyat chigalashgani ayon bo'ldi, va nihoyat, matematika fanini o'qitishning yangicha tizimini yo'lga qo'yish zarurati tug'ildi. Oddiy misol, maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi tizimidan tortib, bu muhim fanni o'qitish sifatini yanada yaxshilashga ehtiyoj nihoyatda katta edi. Tabiiyki, bu jarayon bir yoki ikki-uch yilda birdaniga amalga oshmaydi. Puxta tayyorgarlik ko'rilib, sohada bosqichma-bosqich kadrlar tayyorlash orqaligina maqsadga erishish mumkinligini ko'pchilik ma'qulladi.



Shaxsan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan boshlang'ich ta'limdan boshlab, xalq ta'limi va oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichda matematika fanini bosqichma-bosqich rivojlantirishga ayni vaqtda alohida e'tibor qaratilgani barcha hamkasblar qatori meni ham g'oyat quvontirdi.

Sir emas, rivojlangan davlatlar ro'yxatiga kirgan o'lkalarda endigina taraqqiyot bosqichlari boshlanayotgan kezlarda, eng avvalo, matematikaga alohida e'tibor qaratilgani ko'p bora ta'kidlangan. Oddiygina misol, juda qisqa davr ichida eng qashshoq davlatlardan biri sifatida sanalib kelingan Singapurning ilg'or davlat darajasiga yetganligi dastlab boshlang'ich sinflarda matematika fani o'qitilishiga e'tibor kuchaytirilgani bilan izohlanadi.

Shu yilning 7-mayida Prezidentimizning "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yurtimizda matematika maktabini rivojlantirish bo'yicha tizimdagi muammolar bosqichma-bosqich hal etilishiga va "fanlar shohi"ning taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi deyishga endi bizda asoslar yetarli.

Diilshod NORMURODOV,
Kitob tumanidagi 74-maktabning
matematika va informatika fani o'qituvchisi

Zamonga mos qadam tashlaylik

● Dunyoda yuz berayotgan tojli virus pandemiyasining noxushliklarini yengib o'tib, kishilarning muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydigan kitobxonlikning, ta'lim-tarbiyaning davom etishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar barcha soha vakillarini xushnud etadi, albatta.

Pandemiya sharoitida ko'pchilikda mutolaa uchun qo'shimcha vaqt paydo bo'ldi. O'qilgan kitoblar, kutubxonachilik, onlayn darslar borasidagi suhbatlar va shu kabi mavzularda bahs etish, fikr almashish uchun ham imkoniyat bor. Bunda zamonaviy texnologiya va dasturlarning o'zini alohida e'tirof etish joiz. Toshkent shahridagi "Bilim" axborot-kutubxona markazida ZOOM dasturi asosida tashkil etilgan onlayn uchrashuvni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ushbu uchrashuv ishtirokchilarining fikri bilan tanishib, yuqoridagi qarashlar

nechog'lik asosli ekaniga amin bo'ldik.

— Tojli virus balosining kishilar hayotiga tajovuzi yuz berayotgan bir paytda faoliyatni pandemiya qoidalari amal qilgan holda davom ettirish lozim, — deydi "Bilim" axborot-kutubxona markazi rahbari Hafiza Karimova. — Albatta, birinchi navbatda, ehtiyotkorlikni unutmastlik va yana bu bilan ma'rifat o'choqlari bo'lmish kutubxonachilik ishlarini ham to'xtatib qo'ymaslik uchun sohamiz vakillari o'z ishiga mahorat bilan yondashishlari talab etiladi.

Afsuski, pandemiya ta'lim-tarbi-

ya jarayoniga ham ta'sir o'tkazdi. Dars mashg'ulotlari televideniye orqali olib borildi. Yutuqlar ham, kamchiliklar ham bor. "Sport" telekanali katta muharriri Nargiza Muhammedova esa onlayn uchrashuvda televideniye orqali olib borilgan mashg'ulotlarda ota-onalarning ishtiroki, ularning munosabatiga to'xtaldi.



— Karantin payti ota-onalar onlayn mashg'ulotlar farzandlariga yetib borishini nazorat qilib turishi kerak edi. Ammo ayrim ota-onalar bu ta'lim dasturlariga yengil-yelpi qaradi. Ayrimlari hatto bunday darslar samaradorligini nazorat qilishdan o'zini olib qochdi. Agar bu holat keyinchalik ham davom etsa, ota-ona farzandining ilm olishi sifatiga bee'tibor bo'lsa, onlayn mashg'ulotlar samara bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, yangicha yashash va yangicha ishlash qoidalari ko'nikib, farzandlarimizning bir lahza bo'lsa-da mutolaadan, ta'lim-tarbiyadan uzoqlashishiga, ma'naviy hayotimiz darz ketishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Kun kelib, bu virus chekinar, u iqtisodiy turmushga yetkazgan talofatlar ham qoplanar. Ammo behuda o'tgan vaqt-ni qaytarish va kechikkan ta'lim-tarbiya o'zini qoplash imkonsiz.

Davron RAJAB

Mutaxassis minbari

Ta'lim va koronavirus karantin davri va undan so'ng

Koronavirus (SOVID-19) tarqalishi sababli yuzaga kelgan vaziyat dunyo bo'ylab ta'lim tizimlari uchun yangi sinov bo'ldi. Ko'pgina davlatlar qatori O'zbekistonda ham virus tarqalishining oldini olish maqsadida butun mamlakat bo'ylab maktablar yopilganligi tufayli, o'quvchilarning masofadan ta'lim olish ko'nikmasi va o'qitish manbalaridan foydalanish imkoniyati hamda yangi shaklga psixologik moslashuvini hisobga olgan holda masofadan turib o'qishni ta'minlashda televizion ko'rsatuvlardan foydalanish tizimi tashkil qilindi.



Hozirgi kunda o'quvchilar va o'qituvchilar uchun navbatdagi ta'til mavsumi davom etmoqda. Uzoq muddatli ta'tildan so'ng ta'lim muassasalaridagi yuklamalarga moslashish jarayoni har bir ta'lim oluvchida o'ziga xos tarzda kechadi. Birinchi sinf o'quvchilarining maktab hayotiga to'liq moslashishlari uchun 1,5 oydan 3 oygacha, beshinchi sinf o'quvchisiga bir oy, yuqori sinf o'quvchilari esa moslashish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun ikki-uch hafta vaqt talab etiladi.

Ushbu davrda nafaqat psixologik qiyinchiliklar, balki ko'p hollarda bolada umumiy jismoniy holatida og'ishlar ham kuzatilishi mumkin. Quyida keltirilgan tavsiyalarga amal qilish orqali ushbu davrda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni nisbatan oson yengib o'tish mumkin.

1. Kundalik tartib – muvaffaqiyatli moslashuv garovi. Pandemiya sababli yuzaga kelgan vaziyat, qolaversa yozgi ta'til davrida uzoq vaqt bolalarda kundalik tartibning izdan chiqishi kelgusi jarayonga moslashish uchun asosiy muammo hisoblanadi. Bunday vaziyatda mas'uliyat ota-ona zimmasida bo'ladi (bu oilada o'rnatilgan tartib va ota-onaning munosabatiga bog'liq). Biroq har bir narsaning o'z vaqti bor va o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan ikki hafta oldin bolani asta-sekin "maktab jadvali"ga qaytarish kerak. Kun tartibiga bolaning yoshi, jinsi, istagi va imkoniyatidan kelib chiqib, aqliy va jismoniy rivojlantiruvchi harakatlil o'yinlar va mashg'ulotlarni kiritish maqsadga muvofiq. Amerika tibbiyot akademiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lom

va me'yorida uxlash nafaqat bolaning normal rivojlanishiga ta'sir qiladi, balki samarali o'quv faoliyati uchun asosdir. Shuning uchun birinchi navbatda tunda televizor ko'rishdan voz kechish va uni kechki sayrlar bilan almashtirish zarur (albatta, karantin qoidalariga qat'iy amal qilgan holda). Bu bolaning nafaqat tez va sog'lom uxlab olishiga yordam beradi, kelajakdagi o'zgarishlar uchun ham imkoniyat bo'lib xizmat qiladi.

2. Muvaffaqiyat hissi. Muvaffaqiyat hissi ta'minlay oladigan har bir faoliyat qo'shimcha motivatsiyani talab qilmasligi hech kimga sir emas. Muvaffaqiyat tuyg'usini his qildirish orqali bolaning ortiqcha zo'riqishlarsiz qiyinchiliklarni yengib o'tishi va o'quv jarayoniga kirishib ketishiga yordam berish mumkin. Buning uchun undan birinchi 2-3 hafta qanday baholar olganligini so'ramaslikka, diqqatini darsda olgan yangi bilimlariga qaratishga harakat qiling. Ota-onaning vazifasi — farzandida maktabdagi asosiy narsa bu baho ko'rinishidagi belgilar emas, balki o'qituvchining bergan ajoyib yangi bilimlari ekanligiga ishonchni shakllantirishdir. Va agar bir oydan keyin bolangiz baxtli tabassum bilan uyga kelib, birinchi navbatda darsda qiziqarli narsalarni bilib olganligi haqida gapirsa, siz o'zingizni tabriklashingiz mumkin, uzoq muddatli ta'tildan keyingi adaptatsiya – moslashuv jarayonida muvaffaqiyatga erishdingiz.

Birinchi sinf o'quvchilarining maktab hayotiga to'liq moslashishlari uchun 1,5 oydan 3 oygacha, beshinchi sinf o'quvchisiga bir oy, yuqori sinf o'quvchilari esa moslashish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun ikki-uch hafta vaqt talab etiladi.

3. Bolani sevish va unga g'amxo'rlik qilish – eng yaxshi antidepressant (jazavalanishga qarshi). Bolada ortiqcha bezovtalanish, xavotirlanish hissi kuzatilsa, xulosa qilishga shoshilmang. Bunday vaziyatda ota-ona yoki pedagoglar bolaga mehr va muhabbat hissi orqali unda ichki xotirjamlik va hammasi yaxshi bo'lib ketishiga ishonch hissini shakllantirishlari juda muhim hisoblanadi. Ko'pchilik maktabning ilk kunlaridan bolani qo'shimcha

mashg'ulot, fan to'garaklariga jalb etish ularning fanlarni o'zlashtirishlariga yordam beradi deb hisoblaydi. Lekin bu aks ta'sir berishi, bolada maktabdan bezish hissini keltirib chiqarishi mumkin. Unutmang, to'g'ri yo'naltirilgan muhabbat va g'amxo'rlik hissi bolaning har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishiga yordam beradi.

4. To'g'ri ovqatlanish. Bolaning ovqatlanish ratsionini vitamin-minerallar bilan boyitish juda ahamiyatli. Aqliy faoliyatda ortda qolishi uning ovqatlarida vitamin va minerallarning yetishmasligi bilan ham bog'liq. Chunki tashqi olamni bilishimiz diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq va tasavvurimiz qay darajada ishlashiga va ularning markazi miyaga hamda miya faoliyati esa o'z navbatida organizmdagi vitamin-minerallar nisbatiga bog'liq. Imkon qadar maktab o'quvchilarining ovqatlanish ratsionida go'sht, sut, tuxum, baliq, dukkakli mahsulotlarni ko'paytirish lozim. Ko'proq sabzavotlar, mevalarni iste'mol qilish bolaning oshqozon-ichak tizimini yaxshilab, aqliy faoliyatini rivojlantiradi.

O'qituvchilar uchun tavsiyalar: ko'p jihatdan o'quvchining yangi o'quv yiliga moslashish davri oson va ortiqcha qiyinchiliklarsiz o'tishi o'qituvchiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich kirib borishi uchun sharoit yaratishi kerak:

1. O'rganilgan materialni takrorlash bilan boshlang. Bunday yondashuv yangi bilimlarga ega bo'lish ishtiyoqini yanada oshirib, o'quvchilarning yanada faollashishini, ixtiyorsiz diqqatdan ixtiyoriy diqqatga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

2. Ta'limning noan'anaviy yondashuvlaridan foydalaning.

O'quvchilar o'quv faoliyati bilan faol shug'ullanishi uchun darsda noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalaning.

O'yin texnologiyasidan foydalaning. Bolalar har qanday yoshda o'ynashni yaxshi ko'radilar. O'qituvchi uchun bu usul nafaqat o'quv materiallarini amaliy tushuntirish va mavjud bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash, balki mavzuga nisbatan doimiy bilishga qiziqishni uyg'otish uchun imkoniyat bo'ladi. Maktabda bilishga oid faollikni rag'batlantirish va ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga yordam beradigan loyiha usulidan foydalaning. O'quvchilar ta'til vaqtida bir yoshga ulg'ayib, katta va boy taassurot hamda o'ziga xos hayotiy ko'nikma va tajriba orttiradi. Ta'tildan qaytgach tengqurlari bilan orttirgan yangi bilim, ko'nikma, his-tuyg'ularini o'troqlashish ishtiyoqida bo'ladi. Vaziyatlarni loyihalashtirish darsda sizga o'quv maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish va yozgi taassurotlar yuzasidan o'zaro fikr almashish uchun imkoniyat yaratadi.

3. Hissiy-jismoniy tetiklashtirish usullaridan foydalaning. O'qituvchi bolalar uchun davomida faol ravishda harakatlanganligini hisobga olib, ular 45 daqiqada o'tirishga moslashishlari uchun, dastlab har 20 daqiqada 1-2 daqiqalik tik turgan holatda energiya to'plovchi harakatlarni bajartirishi lozim, aks holda, bu aqliy, hissiy va jismoniy holatlarga salbiy ta'sir qiladi.






Maktablarda "Erkin muloqot daqiqalari"ni o'tkazish tavsiya etiladi — darsda (2-3 daqiqada) o'quvchilar ixtiyoriy mavzuda bir-birlari bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday tadbirlar nafaqat sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga yordam beradi, balki o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini ham oshiradi.







Ushbu bosqichda ota-onalar va o'qituvchilar bolaning qalbida maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishi zarur. Ta'lim jarayonini xayoliy, jozibador va yangi dunyoga sayohat sifatida tashkil etish orqali faol va mehnatsevar o'quvchi shaxsini tarkib toptiradi.

O'qituvchilaridan olgan bilimlari o'quvchi-yoshlarimizning kelgusida muvaffaqiyatini ta'minlashi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, iqtidori-qobiliyati bo'yicha faoliyat yuritishi, hayotganligidan rozi bo'lib, baxtli, farovon, mazmunli umr kechirishida qo'l kelsin, yo'l ko'rsatsin, foydasi tegsin.

Fizika fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
54.	Massasi 16 g bo'lgan geliyni ($M=4$ g/mol) 10 K ga izobarik qizdirish uchun ketgan issiqlik miqdori bilan, massasi 10 g bo'lgan neon ($M=20$ g/mol) izotermik ravishda qancha ish (J) bajaradi?	831	499	1163	416
55.	Ideal gaz ustida ABCA sikl bajarildi. Agar C va B nuqtalardagi gaz ichki energiyalarining nisbati $U_C/U_B=6$ bo'lsa, C va A nuqtalardagi gaz hajmlarining nisbati V_C/V_A ni aniqlang. 	6	$\sqrt{6}$	36	12
56.	Grafikda berilgan ma'lumotlardan foydalanib $V_C - V_A$ ayirmani (m^3) hisoblang. V_C va V_A lar ideal gazning mos ravishda C va A nuqtalardagi hajmlari. Boshlang'ich holatdagi hajm $V_A=0,3$ m^3 . 	0,3	0,15	0,6	0,45
57.	Grafikda berilgan ma'lumotlardan foydalanib A va C oraliqida ideal gaz bajargan ishini (kJ) aniqlang. 	60	45	63	72
58.	Ideal gazga (bir atomli) avval izobarik, keyin izotermik ravishda issiqlik miqdori berildi. Bu ikki jarayonda gazning ichki energiyasi 96 kJ o'zgardi va gaz 144 kJ ish bajardi. Izobarik va izotermik jarayonlarda berilgan issiqlik miqdorlarining nisbati Q_1/Q_2 ni aniqlang.	2	1/2	3	1/3
59.	A va B nuqtalar orasidagi elektr sig'imi hisoblansin. 	$8C/5$	$7C/5$	$6C/5$	$5C/7$
60.	C sig'imli birinchi kondensatoridagi kuchlanish U, 2C sig'imli ikkinchi kondensatoridagi kuchlanish 2U. Kondensatorlarning qoplamalari to'g'ri (zaryadlari moslab) ulansa, batareyaning natijaviy energiyasi qanday bo'ladi?	$25CU^2/6$	$16CU^2/5$	$20CU^2/3$	$32CU^2/5$
61.	Massalari teng bo'lgan, bir xil radiusli zaryadsiz M va N sharlar uzunligi bir xil bo'lgan dielektrik iplarga osilgan. Agar M sharni +q, N sharni +5q zaryadlasak, ularning vertikal bilan hosil qilgan burchaklari o'rtasidagi munosabat qanday bo'ladi? 	$\alpha=\beta$	$\alpha=5\beta$	$5\alpha=\beta$	$3\alpha=\beta$

№	Savol	A	B	C	D
62.	Rasmda ikkita bir xil musbat nuqtaviy zaryadlar va ularning ekvipotensial sirtlari tasvirlangan. Har bir zaryadning alohida hosil qilayotgan qo'shni sirtlarining potentsiallari 3 V ga farq qiladi. A nuqtada turgan birlik zaryadni B va C nuqtalarga ko'chirishda bajarilgan ishlarning modulini taqqoslang. 	$A_B=A_C$	$A_B>A_C$	$A_B<A_C$	$A_B=2A_C$
63.	Sxemadagi R_1 qarshiliklardan 2 A o'zgarmas tok oqayotgan bo'lsa, R_3 qarshilikdagi tokni (A) toping. 	12	3	2	6
64.	A va B nuqtalar orasidagi potentsiallar farqini (V) toping. Manbalarning ichki qarshiliklari 0 ga teng. $\epsilon_1=8$ V, $\epsilon_2=16$ V, $\epsilon_3=3$ V 	5	11	21	27
65.	Qarshiligi 10 Ω bo'lgan o'tkazgich uchlariga 20 V kuchlanish qo'yilgan. Bu o'tkazgichdan 5 s da oqib o'tgan zaryad miqdorini (C) toping.	10	50	2,5	0,4
66.	Qarshiligi 1 Ω bo'lgan silindrsimon o'tkazgich uchlariga 16 V kuchlanish qo'yilgan. Bu o'tkazgichning ko'ndalang kesimidan 5 s da nechta elektron o'tadi? $e=1,6 \cdot 10^{-19}$ C	$50 \cdot 10^{19}$	$5 \cdot 10^{19}$	$500 \cdot 10^{19}$	$50 \cdot 10^{17}$
67.	A va B nuqtalar orasidagi umumiy qarshilik hisoblansin. 	$2R/3$	$4R/7$	$5R/3$	$3R/5$
68.	Elektr zanjirdagi barcha qarshiliklar teng, har biri 4 Ω dan. Agar A va B nuqtalar orasidagi potentsiallar farqi 12 V bo'lsa, ampermetrning ko'rsatishini (A) aniqlang. 	1,2	1,8	0,9	2,4
69.	Zarraning impulsi p, to'liq energiyasi E bo'lsa, tezligi qanday? c — yorug'lik tezligi.	$\frac{pc^2}{E}$	$\frac{3pc^2}{5E}$	$\frac{5E}{3pc^2}$	$\frac{E}{pc^2}$
70.	Agar $\epsilon=3$ V, $R=2$ Ω bo'lsa, ampermetrning ko'rsatishini (A) aniqlang. Tok manbalarining ichki qarshiligi nolga teng. 	0,5	1,5	1	2
71.	Birinchi sanoq sistemasida zarraning tezligi 0,6c, impulsi p. Boshqa sanoq sistemasida tezligi 0,8c bo'lsa, impulsi qanday? c-yorug'lik tezligi.	$16p/9$	$9p/16$	$4p/3$	$3p/4$

(Davomi kelgusi sonlarda.)

So'z tarixi — o'z tariximiz

Misol va timsol

Maqolxonlik

"Alpomish" eposimiz, tarixnavis adib Mirkarim Osimning rivoyatlar asosida yaratgan turkum qissalari, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani, Xo'ja Nasriddin afandi latifalari, "Kenja botir" va "Muqbil toshotar" ertaklariga xos badiiyat tahlil etilgan asarlarim ("Xalqning o'lmas ruhi", "Qissalardan hissalar", "Otabek va Kumush dostoni", "Afandining yo'rig'i" va "Botirlik falsafasi") yigirma yil mobaynida yozildi va yorug'lik ko'rdi. Yoshim yetmishdan oshganida xalq og'zaki ijodi, umuman, badiiy adabiyotning eng ixcham va eng hikmatli janri bo'lmish maqollar mag'zini chaqib, ularning estetik mohiyatini anglab yetishga urindim. Alpomishxonlik, qissaxonlik, qodiriyxonlik, latifaxonlik va ertakxonlikdan keyingi bu maqolxonlik turkumidagi bir ixcham badii hukmingizga havola etmoqdaman.

Dastlabki asarlarimdan biri 1978-yili "O'qituvchilar gazetasi" — (hozirgi "Ma'rifat")ning birinchi sahifasida e'lon qilingan "Tabiat shaydosi" nomli maqola bo'lib, u biologiya fani o'qituvchisi, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi Musaboy Teshaboyev haqida edi. O'zim ko'p yillar o'qituvchi bo'lib ishladim va ushbu gazetada ko'plab maqolalar chiqardim. Galdagi bu ixcham asarim sizga shoyad yoqsa deb,

MUALLIF

Badiiy adabiyot, ya'ni so'z san'atini har kim o'z dunyoqarashi, bilim darajasi, did-farosatiga ko'ra turlicha ta'riflaydi. Kimdir uni "so'zga chechanlik", "ta'lim-tarbiya vositasi" desa, boshqasi "bekorchining ermagi" deydi, kimdir "insonshunoslik" desa, yana biron "ko'ngil ishi", boshqalar "voqea-hodisalarning haqqoniy ifodasi", "xalq ruhining ko'zgusi", "hayot maktabi" va hokazo. Bunday ta'riflarda ham jon bor, albatta. Lekin ularning birontasi masalaning mohiyatini yaqqol ochib ko'rsatolmaydi. Ya'ni, badiiy adabiyotning yetakchi xususiyatini aniqlashtirib berolmaydi. Modomiki badiiy adabiyotning eng birlamchi, eng lo'nda ta'rif "so'z san'ati" ekan, avvalo "Mana shu so'z san'atining o'zi" degan savolga to'g'ri javob topish kerak bo'ladi. Mening javobim shunday: "So'z san'ati deb misolni timsolga va masalani masalga aylantirish san'atiga aytiladi". Afsuski, ko'p hollarda badiiy asar deya taqdim etilayotgan aksariyat yozuvlar (she'rni, hikoyami, qissami, romanmi, dostonmi — qay janrga mansubligidan qat'i nazar), timsol bilan masalga aylanmasdan, tasodifiy misol bilan yechimi yo'q mujmal masala holida qolib ketaveradi. Buning tub sabablari va oqibat-na'tijalarini to'g'ri anglab yetishda boshqa janrlarga nisbatan badiiy adabiyotning eng qisqa va eng purhikmat janri — maqolga asoslanish har jihatdan qulay. Mana, masalan, "Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r" maqolini olib qaraylik. Agar shu hikmatli gapni o'zimizcha tahrir qilib, "Ayiqni shamol uchirsa, mushukni osmonda ko'r" desak, nima bo'ladi? U hikmatli gap emas, tagma'nodan mahrum, mantig'i yo'q, jo'ngina bir gapga aylana-di-qoladi. Nima uchun? Chunki "Nega aynan ayiq bilan mushuk?" degan savolga mantiqan asosli javob topolmaydiz. Ya'ni, bu o'rinda ayiq va mushuk misollari timsolga aylalmagan bo'ladi. Hikmatli gapdagi tuya bilan echki esa, jo'n misol emas, har biri to'laonli timsol ekan o'ylab qaragan odamga zimdan anglashilib turadi! Chunonchi, tuya og'irlik-bosqlik, vazminlik, salobat, sabr-toqat, kuch-qudrat..., echki esa, aksincha, yengillik-engiltaklik, havoyilik, jikkaklik, jirtaklik, shumtakalik... kabi bir qator fe'l-atvorlarga ega. Ayni shu fe'l-atvorlariga ko'ra ular bir-biriga batamom zid va uchish-uchirish bilan uzviy bog'liq timsollardir. Agar maqolda gap og'irlik-bosqlik va yengillik-engiltaklik emas, deylik, qo'pollik va muloyimlik xususida ketayot-

gan bo'lganida ayiq bilan mushuk misollari timsolga aylanishi mumkin, albatta. Lekin bunday ishini hammayam uddalayolmaydi, chunki u so'z va uning tagma'nolari bilan ish ko'rayotgan asl so'z san'atkorining mahoratiga bog'liq bo'ladi.

"Ma'nolar maxzani. Ma'nolar sharhiga bag'ishlangan kitob"da ("O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2018, 22-bet) "Balapon boshiga, turumtoy to'shiga" maqoli shunday sharhlangan: "Balapon (bu so'zni polapon deb ham talaffuz etadilar) — qushning uchirma bo'lgan jo'jasi. Turumtoy — ov qushlarining eng kichkinasi. Maqolning to'g'ri ma'nosi shuki, hali uchishni yaxshi o'rganmagan balapon uchman deb harakat qiladigan, ya'ni qilib tushib, o'z boshiga yetadi. Turumtoy esa o'zining kuchi yetmagan saydga chopib, to'shini oborib urib, o'ziga o'zi shikast yetkazadi yo o'ladi. Majoziy ma'nosi: "O'z kuchidan, holidan ortiqcha narsaga uringan odam o'ziga o'zi ziyon-zahmat yetkazadi". Ko'rinish turibdiki, kitobda "balapon" va "turumtoy" so'zlarining tub lug'aviy ma'nolari bilan maqolning asl va majoziy ma'nolari lo'ndagina sharhlangan. Lekin hikmatli gapning so'z san'ati sifatidagi badiiyati albatta ochilmagan, zero kitobning ilmiy yo'nalishi buni taqozo etmagan. Bu maqolda ham misol sifatida tilga olingan balapon bilan turumtoy o'ziga xos timsolga aylantirilganini ko'ramiz. Modomiki balapon uchishni endi o'rganayotgan, buning uchun boshini garovga qo'yib, jon-jahdi bilan urinib-surinayotgan havaskor qushcha, turumtoy esa, o'zidan kuchliroq o'ljaga qo'rqmay to'sh urib, chug solayotgan qushcha ekan, bu ikki chug timsol sifatida, deylik, buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" falsafiy dostoni, buyuk masalnavisimiz Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari va yo xalq ijodiga eng yaqin shoirlarimizdan yana biri Hamid Olimjonning "Semurg" yoki Parizod va Bunyod" dostonidagi timsolga aylantirilgan qushlardan qolishmaydi. Bu timsollar butun boshli doston bilan zarbulmasalda emas, atigi bitta gap — to'rttagina so'zda yaratilganiga nima deysiz! Bunday chinakam badiiy kashfiyotni xalqdan boshqa qay bir so'z san'atkori yaratmay oladi?! Yana shunisi qiziqki, maqol badiiy asar sifatida bugungi kunda tilimizda kam qo'llaniladigan "balapon" va "turumtoy" so'zlarini asrlar bo'yi o'zida saqlab, bizga beminat yetkazib turibdi! Bugina emas,

Ona tilimizdagi "bolakay", "bola-chaqa", "chaqaloq" kabi so'zlar ham anglatadiki, "balapon" avvalboshda "polapon" ham emas, balki "bolapon" bo'lgan! "Boshiga" so'zi bilan mos kelishi uchungina bu so'zning birinchi tovushi "b" deya talaffuz qilinmagan, balki asl ham "bolapon" bo'lgan-da u! Biz bugungi kunda "bolakay" so'zidagi "kay" qo'shimchasining ham, "bolapon" so'zidagi "pon" qo'shimchasining ham tub lug'aviy ma'nosini, afsuski, unutib qo'yganimiz. Maqol uni ham anglab yetishimizda bizga beminat ko'makdosh bo'la oladi. Yana bir holga alohida diqqat qiling: "Balapon boshiga, turumtoy to'shiga" gapidagi har ikki bo'lak, o'ylab qaralsa, chalgala o'xshaydi. Agar "Balapon boshiga, turumtoy to'shiga" jabr qiladi" desak, gap to'la bo'ladi, lekin u endi o'zining hikmatli gaplik xususiyatini yo'qotib qo'yadi. Zotan, maqolning hikmatli gapligi avvalo shundaki, har bir tinglovchi va yo o'quvchi ana o'sha gapning atayin chala qoldirilgan qismini o'zicha to'ldiradi: kimdir "jabr qiladi", kimdir "etadi", kimdir "ehtiyot bo'lishi kerak", yana kimdir "ishonadi, mard-da, mard!" kabi so'zlarni qo'shib tushunaveradi. Maqolning so'z san'ati sifatidagi purmanoligi-purhikmatligi aynan mana shunda, bizni ijodiy fikrlash va turlicha talqin qilishga unday olishida-da!

"Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur". Bu hikmatli gapning oxiriga xohlasangiz nuqta, xohlasangiz undov, xohlasangiz savol belgisini qo'yaverasiz — uchala holatda ham xato qilmagan bo'lasiz! Ayyorlik timsoli tulki tilidan aytilgan bu gap ham misolni timsolga, ham masalani masalga aylantirish mahoratini yaqqol ko'rsatib turibdi. Masala shundaki, ovchi shudgorda tulkiga qopqon, qopqonga esa, quyruq qo'ygan! Yumronqoziq, olmaxon yuki boshqa hayvon shudgorlangan yerda bo'lmasligini, u yerdagi dum ovchining ko'zbo'yamachiligi ekanini tuppata-tuzuk tushungan ayyor tulki nima qilsin endi? Shunday bir tagdor gap qiladiki, bu gapni faqat ayyorlik timsoli bo'lgan tulkigina ayta oladi! Tulkin o'z tilida gapirtirgan donishmandlikda benazir xalqqa shu bir masalaning yechimini dunyodagi eng qisqa masalga — badiiy jihatdan "Zarbulmasal" asaridan ham baquvvatroq masalga aylantiradi! Keling, bu gapni o'zimizcha qayta qurishga urinib ko'raylik. "Shudgordagi quyruq qopqonga qo'yilgan". Bu endi hikmatli gap emas, shunchaki oddiygina darak bo'ladi! "Iye, shudgorda quyruq qayerdan qanday kelib qoldi ekan-a?" Bu tulkining ayyorligini emas, aksincha, ko'ligini ko'rsatuvchi so'roq gap!.. Masalaning "avra-astari"ni har qanaqasiga aylantirib ko'ravering, ayni maqoldan yetukroq badiiy asarni yaratolmaydiz! Maqoldagi, ayniqsa, "bir balosi" so'z birikmasida gap ko'p! Bu birikma tulkining ayyorligini ko'rsatibgina qolmaydi, balki sizni ham ana o'sha "balol"ning aynan nimaga ishoratligi xususida o'ylashga undaydi. "So'z san'ati" deganlari mana shu-da!

"Mushuk bekorga oftobga chiqmaydi". Bu maqolni qanday tushunish kerak? Ma'lumki, mushuk garchi tulkidek ayyorlik timsoli bo'lmasa-da, har qalay, o'ziga yetgulik timsollardan biri. Masalan, muloyimlik, soyaparvarlik, aziz jonining huzurini bilish, bekasiga suyakalib-yaltoqlanish, o'zini ko'z-ko'z qilish umidida yetti yot

begonaga ham peshvoz chiqib, uning oldini namoyishkorona kesib o'tish singari xususiyatlar aynan shu mushuk degan maxluqqa xos. Xo'sh, shunday xususiyatlarga ega bo'lgan tabiatan soyaparvar mushuk bekorga oftobga chiqadimi? Yo'q, aslo! Bu favqulodda hodisaning biron jiddiy sababi, hatto bir necha sabablari bo'ladi, albatta! Mana shunday sabablarning butun boshli zanjiri — bir mushukning oftobga yugur-gilab chiqishidan boshlangan o'ziga xos musht ketdi turkiy xalqlar adabiyotining eng mahoratli yozuvchilaridan biri Aziz Nesinning "Musht ketdi" hajviy hikoyasida qoyilmaqom qalamga olingan. Xalqchil yozuvchining hikoyasini qo'ya turib, xalq yaratgan birgina hikmatli gap — "Mushuk bekorga oftobga chiqmaydi"ga qaytaylik. Xo'sh, mushuk aynan nega oftobga chiqadi? Bu savolga har kim o'zicha javob topaveradi. Kimdir "sichqon ovlagani" deydi, yana kimdir "Bekasi "Sen soyaparvar suyakal-avermay ko'zimdan yo'qol!" deb quvlab solgandir-da!" deydi, kimdir yana boshqacharoq javob topadi. Muhimi javobda ham emas, balki masalaning qay tarzda qo'yilib qanday yechim topganida va oddiygina misolning purma'no timsolga aylantirilishida! Shu birgina "ilmoqli" gap qisqa va go'zal badiiy asar sifatida tinglovchi bilan o'quvchini fikrlashga unday olishida!

"Domlani ayrganini qil, qilganini qilma". Bu maqol kitobda (82-bet) "Xalq bu maqolni kishilarga nasihat tarzida emas, balki "unday qilish — gunoh, bunday qilish — gunoh" deb tashviqot yurguzib, o'zlari esa bunga tamoman zid xatti-harakatlar qiladigan din namoyandalariga nisbatan kinoya tarzida qo'llagan. Hozir biron qay o'rgatishni yaxshi ko'radigan, amalda o'z so'zlariga o'zi rioya qilmaydigan ma'noda qo'llanadigan bo'lib ketgan" deya sharhlangan. Bu sharhdan anglashiladiki, maqol faqatgina qilyotgan ishi bilan gapirayotgan gapi bir-biriga mos kelmaydigan, o'z gapiga o'zi amal qilmaydigan domlalar haqida. Biroq, ta'kidlaganimizdek, maqolarning purhikmatligi shundaki, ularni har kim o'z dunyoqarashidan kelib chiqib ijobiy yoki salbiy talqin qilaverishi mumkin. "Ustoz — otangdan ulug'" deydi xalq va bu bilan otalar kamsitilmaydi, balki ustozlar (domlalar, mullalar, o'qituvchilar, murabbiylar) ulug'lanadi. Xuddi shunday, yuqoridagi maqolni "Modomiki domlaga o'xshab Qur'oni karim bilan Hadisi sharifni xatm qilib, bir dunyo kitoblami o'qib tushirib, ilm-u amal peshvosi bo'lishdek og'ir ishini qilolmas ekansan, aqalli uning ayrganini qil-da!" deb tushunishimiz ham mumkin-ku, to'g'rimi? Aslida, aynan shunday tushunish kerak! Sho'ro tuzumi paytida domla(mulla, dindor, qori, ruhoni, mufti...)larni yomonotliq qilishdek g'arazli niyatda bu maqol ham atayin teskari tushuntirilib, domlani olabo'ji ko'rsatishga urinilgan. Endi bunday g'arazga yo'g'rilgan qing'ir munosabatlar va chapaqay talqinlarga chek qo'yilmog'i kerak, albatta.

Ona tilimizda "astarli gap", "tagdor gap" kabi iboralar bor. Buning ma'nosi shuki, har bir hikmatli gapning avra-astari, tag-tugini olib qarasangiz, kamida uchta qatlam — yuzi, tag va tub ma'nolari ilg'ay olarsiz. Ayni shunisi bilan o'zbek xalq maqollari buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning jahonda mashhur "Xazoyin ul-maoni" ("Ma'nolar xazinasi") chor devonidan ham boyroq bebaho ma'nolar xazinasi, bizning eng qimmatli ma'naviy boyligimizdir. Besh asr muqaddam yaratilgan to'rt devon emas, besh ming yil avval yaratilgan "Bilgami" dostonining muallifi bo'lgan qadimiy bir bilgami elning hayotiy saboq tarzida o'z fikrini jamlab, bir tutamga qilib avlodlarga qoldirgan hikmatli gaplari, durdona meroslari-da axir bu maqollar!

OTAULI

Keyingi yillarda ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish borasida jiddiy islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvarda Parlamentga qilgan Murojaatida barcha sohalar kabi ta'lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ham ustuvor jihatlari ko'rsatib berildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni samarali davom ettirish, umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash, oliy ta'limning akademik ilm-fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq muhim masalalar o'z ifodasini topgan. Bugungi mulohazalarimiz islohotga muhtoj o'zbek pedagogikasidagi ayrim jihatlari, noto'g'ri yondashuvlar, dars mashg'uloti va o'qituvchilik kasbi borasida bo'ladi.

Pedagogikaga nisbatan mexanik yondashuv

Bugungi kun pedagogikasida o'rgatishdan ko'ra o'rganishga o'rgatish ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Milliy pedagogikamiz yaqin yillargacha o'quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytga qadar egallangan mavjud bilimlarni o'rgatishni eng maqbul yo'l sifatida qarab keldi. Bunda mavjud bilimlar o'quvchi ong va tafakkuriga tayyor holda singdiriladi. Bu jarayonda bilimlar adabiyotlarda tayyor holda mavjud bo'ladi va buni o'zlashtirish o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham qanoatlanarli hisoblanadi. Ammo bu o'quvchilarda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bu turdagi pedagogikaning bosh maqsadi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda o'quvchining qanchalik ko'p bilimni yodda saqlaganiga qarab uning salohiyati haqida xulosa chiqariladi. Bu to'g'ri, ammo bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini, birinchi bosqich bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o'zini oqlamasligi oydinlashadi. Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy informatsiyadan farqi qolmaydi. Ya'ni mavjud bilimlar yangi bilimlarni kashf etish uchun poydevor sifatida xizmat qilmasa, bu jarayonda o'ziga xos zanjirli reaksiya hodisasi kuzatilmasa, fan va ishlab chiqarishda kutilgandek rivojlanish va taraqqiyot kuzatilmaydi. Ammo bir necha avlod o'quvchilar yuqoridagi to'ntoq metodika "sharofati" bilan adabiyotlarda mavjud bilimlarni esda saqlab qolish, ularni ko'r-ko'rona yodlash, boringki, olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etishdan nariga o'ta olmay kelishdi. Qanchadan qancha xotirasi bilim va informatsiyaga to'lib toshgan iqtidorli o'quvchilarning iqtidorlari ro'yobga chiqmay, ishlab chiqarish jarayoniga singib "yo'qolib" ketdi. Vaholanki, dars mashg'ulotlarida o'quvchilar har bir fan, kerak bo'lsa har bir mavzu borasida hodisa va mohiyatni, sabab va oqibatni anglashi, fan doirasida va fanlararo o'zaro bog'lanish, munosabat va muvozanatlarni tushunishi, chog'ishtirish, solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu esa dars mashg'ulotining qay darajada jiddiy va o'ziga xos jihatlari borligini ko'rsatadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar: tavsif va tahlil

Keltirilgan va boshqa sabablarga ko'ra pedagogika sohasi doimo yangilanib, zamonga moslashib boraveradi. Milliy pedagogikamiz hozir shiddatli o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda pedagogikamizdagi eng muhim yangilanishlardan biri yangicha pedagogik texnologiyalar (YPT) va interaktiv metodlar asosida dars mashg'ulotini tashkil qilish bo'lib turibdi. Bugungi kunda o'qituvchidan bu tushunchalar doirasida dars mashg'ulotiga nisbatan noan'anaviy yondashuvlar talab qilinmoqda. Bu kabi nostandart tajribalar zamirida o'qituvchining dars mashg'ulotiga yangi, samarador usul va vositalar bilan yondashishi, dars mashg'ulotiga nisbatan ijodiy jarayon sifatida qarash mavjudligini ko'ramiz. Yangi usul va vositalar, metod va yondashuvlar agar fan va mavzuning o'ziga xosligidan kelib chiqib to'g'ri tanlansa va me'yorida qo'llanilsa, shubhasiz, dars mashg'uloti samaradorligini oshiradi. Ammo hozir qo'llanilayotgan YPT va interaktiv metodlarning barchasi ham dars mashg'uloti samaradorligini oshiryapti, deb aytolmaymiz. To'g'rirog'i, YPT va interaktiv metodlarni noto'g'ri tushunish hamda uni noto'g'ri talqin qilish bilan bog'liq holatlar kuzatilmoqda. Nazarimizda, keyingi paytlarda bu borada urho-ur va haybarakallachilik ancha avj olib ketdi. Kuzatishlarimizga qaraganda, bu hodisaga nisbatan tushunib-tushunmay yondashish natijasida (bu ayniqsa xalq ta'limi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida) dars mashg'uloti o'yinga, qandaydir ko'ngilochar mashg'ulotga aylantirib qo'yilmoqda. Ayrim o'qituvchilar masalaga ko'r-ko'rona yondashishi natijasida dars mashg'ulotining mohiyatidan uzoqlashib, maqsadidan chekinib ketayotganliklarini sezmay qolishmoqda. Zero, sinovdan o'tmagan, natijasi kafolatlanmagan yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etib bo'lmaydi. Chunki ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarning taqdiri, ularning bilim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlari millat kelajigiga daxldor hodisalar bo'lib, uning ustida "tajriba o'tkazish" uchun o'qituvchiga huquq va vakolat berilmagan.

Unutmashimiz kerakki, dars mashg'uloti, ilm olish hech qaysi zamon va makonda o'yin bilan amalga oshirilmagan va bunday bo'lishi mumkin ham emas. Bu bog'cha yoshidagi bolalar va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun muayyan darajada to'g'ri

Ta'limdagi "ko'tarish" va "tushirish" tamoyillari yangi pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash borasida ayrim mulohazalar

bo'lishi mumkin. **Chunki ularning yosh va fiziologik xususiyatlari hisobga olinganda, turli o'yin va ko'ngilochar mashg'ulotlar bilan ularni ta'limga olib kirish va shu orqali dastlabki bilimlarni berishda bu usul o'ziga xos adaptatsiya jarayoni sifatida o'zini oqlashi mumkin.** Ammo ta'limning keyingi bosqichlarida davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilarga to'raligicha o'yin metodlariga asoslangan dars mashg'ulotlarida berib bo'lmaydi. Bizningcha, butun darsni interaktiv ta'lim metodlari asosida o'tkazish quyidagi sabablarga ko'ra dars mashg'ulotidan kutiladigan natijaga salbiy ta'sir ko'rsatadi: **birinchidan**, har qanday interaktiv metodlarni amalga oshirish alohida tayyorgarlik va shart-sharoitni talab qiladi va har doim ham buning imkoniyati bo'lavermaydi. **Ikkinchidan**, interaktiv metodlarni tashkil qilish va uning mohiyatini o'quvchilarga yetkazish o'qituvchining vaqtini ortiqcha "o'g'irlaydi". **Uchinchidan**, dars mashg'ulotining yillar davomida shakllangan va tan olingan zaruriy tarkibiy qismlari mavjud: **ulardan** hech bo'lmaganda bittasining tushirib qoldirilishi natijasida dars mashg'uloti tugallik kasb etmaydi. Interaktiv metodlarga asoslangan dars mashg'ulotlarida bunga amal qilish juda mushkul va ularga nisbatan vaqt taqsimotini tartibga solib bo'lmay qoladi.

Ta'lim jarayonining o'zgarmas qoidalari

Ta'lim jarayonining har qanday davrlarda ham o'zgaraydigan jihatlari bor bo'lib, bu quyidagilarda namoyon bo'ladi: **birinchidan**, ilm olish o'qish-o'rganish, izlanish, umuman, mehnat qilishni talab yetadi. Garchi maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa-da, qandaydir o'yinlar va o'quvchilarning diqqatini tortadigan ko'ngilochar mashg'ulotlar (buni biz "pedagogik texnologiyalar" va "interaktiv ta'lim metodlari" degan chiroyli ilmiy termin bilan atagan bo'lsak-da) dars jarayoni qiziqarli o'tishini ta'minlashi mumkindir, ammo samarali bo'lishini ta'minlay olmaydi. Har qanday qiziqarli o'tgan dars mashg'ulotini ham "samarali" deb bo'lmaydi. Umuman, dars mashg'ulotining, ilm olishning qiziqarli bo'lishi borasidagi fikrning o'zi biroz mulohazali. Dars mashg'ulotining qiziqarli yoki o'quvchilarning faolligi masalasi ixtiyoriy, ammo uning samarali bo'lishi majburiy shart sifatida qaralishi kerak. Dars mashg'ulotining samarasi esa ta'lim oluvchining ta'lim beruvchidagi bilimni,

Umuman, dars mashg'ulotining, ilm olishning qiziqarli bo'lishi borasidagi fikrning o'zi biroz mulohazali. Dars mashg'ulotining qiziqarli yoki o'quvchilarning faolligi masalasi ixtiyoriy, ammo uning samarali bo'lishi majburiy shart sifatida qaralishi kerak.

shuningdek, bilim olish yo'llarini qay darajada o'zlashtirgani bilan belgilanadi. O'yin texnologiyalariga asoslangan dars mashg'ulotlarida, o'qituvchiga bog'liq bo'lmagan holda, o'quvchining bilimi emas, balki uning "o'yin-dars"dagi faolligi birinchi darajaga chiqib qoladi va natijada o'qituvchi mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirishga majbur bo'ladi.

Dars mashg'ulotida o'quvchining faolligi yaxshi, ammo faollik har doim ham bilimning o'zlashtirilishini kafolatlamaydi. **Ikkinchidan**, ta'lim jarayonida ikki tomon: bilim beruvchi va bilim oluvchi tomonlar bo'ladiki, interaktiv metodlar degan tushunchaga ruju qo'yib, mashg'ulot jarayonida ularning mavqeyini va faolligini tenglashtirish ham, bizningcha, unchalik to'g'ri emas. Bu mashg'ulot jarayonida o'qituvchining bilim darajasidagi kamchiliklarni xaspo'shlashga imkoniyat yaratadi (1-sabab), shuningdek, mashg'ulotning tartibsiz o'tishi (2-sabab) va o'qituvchi hurmatining pasayishi (3-sabab) kabi salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Fikrimizni izohlashga harakat qilamiz:

1-sababning oqibati: interaktiv metodlarga asoslangan dars mashg'ulotlarida muayyan qolip yoki chegaralarning bo'lmasligi natijasida o'qituvchining bilim saviyasi haqida xulosalar chiqarish qiyin kechadi. Bunday usuldagi dars mashg'ulotida o'qituvchidan bilimdan ko'ra tashkilotchilik ko'proq talab qilinadi. O'z bilim saviyasiga ishonmaydigan o'qituvchilar bundan o'z maqsadlari yo'lda foydalanishadi. Ta'lim jarayonining sifati aniq savollarga berilgan aniq javoblar bilan ta'minlanadi. An'anaviy darslarda bundan qochishning imkoniyati yo'q, ammo interaktiv metodlarga asoslangan dars mashg'ulotlarida buning ko'plab usul va yo'llari mavjud.

2-sababning oqibati: Interaktiv metodlar natijasida dars mashg'uloti payti o'quvchilarning faollashishi, tabiiyki, mashg'ulotning tartibsiz o'tishiga sabab bo'ladi. Auditoriyadagi shovqin-suron, ayrim hollarda qo'shni auditoriyadagi dars mashg'ulotiga ham xalal berish darajasiga borib yetadi. Bu tajribada ko'p bora kuzatilgan. "Nima gap?" deb xabar olishga kirganingizda, "Interaktiv metod asosida dars o'tyapmiz" degan javobni olasiz. Endi o'yab ko'ring, qo'shni auditoriyaga ham xalal berish darajasidagi shovqinli dars mashg'ulotini samarali dars mashg'uloti deyish mumkinmi? Harholda, biz bunday dars mashg'ulotining sifatiga shubha qilamiz.

3-sababning oqibati: Dars mashg'ulotining shovqinli va unda o'quvchilarning haddan ortiq erkin bo'lib ketishi natijasida

o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi subordnatsiya yo'qola boradi. Auditoriyada bilimli va bilimsiz o'quvchilar bo'lgani kabi, xarakter jihatdan jiddiy va hazil-muhtoyibaga moyil va tomoshatalab o'quvchilarning ham bo'lishi tabiiy. Ana shunday o'quvchilar o'qituvchi tomonidan yaratilgan erkinlikni suiiste'mol qilib, auditoriyaga mos kelmaydigan luqmalar tashlab, o'qituvchini noqulay vaziyatga tushirishni va undan qanday qilib chiqib ketishini kuzatishni maqsad qilishadi. O'quvchiga fikrini erkin bildirishi uchun imkoniyat yaratilganda, aksariyat hollarda, mashg'ulot mavzusidan chekinish hollari kuzatiladi. Xullas, bu jarayonda o'qituvchining hurmati va salobati o'quvchilar ko'z o'ngida pasayib boraveradi.

Demak, bizning fikrimizcha, dars mashg'ulotida o'qituvchi faolligi va tashabbuskorligining, yuqori bo'lishi o'ta lozim ekanligi anglashiladi. **O'zini hurmat qilgan va bilimli o'qituvchi mashg'ulot payti faollikni ham, tashabbusni ham, birinchi o'ringa ham o'quvchiga berib qo'ymaydi.** Bunday o'qituvchilar auditoriyadagi dars mashg'ulotiga, fanga yoki o'qituvchiga nisbatan zig'ircha bo'lsayam hurmatsizlikni, oriyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib, e'tiborsiz qoldirmaydilar. Bilimsiz o'qituvchilar esa o'quvchilarning bunday munosabatini go'yoki "ko'rmaydilar". Bunday o'qituvchilar o'quvchilarga o'ta ehtiyotkorona munosabatda bo'lshadi, chunki o'quvchilarni tartibga chiqirishi yoki ularga tanbeh berishi bilan bog'liq o'quvchi uchun yoqimsiz ishlar o'qituvchining kamchiliklari o'quvchilar tomonidan oshkora aytib yuborilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu tariqa o'ziga, faniga va darsiga nisbatan o'quvchining hurmatsizlik qilishi ularning oriyatini qiyinlashtiradi, bunga qarshi oshkora munosabat bildirishga jur'at qolmaydilar. Chunki uning kechirib bo'lmaydigan eng katta kamchiligi bor — BILIMSIZLIK. Shu tariqa bilimsiz o'qituvchi faollik va tashabbusni o'quvchiga topshirib qo'yadi. Ammo faollik va tashabbus o'qituvchida bo'lishi lozim. Chunki ta'lim beruvchidagi bilim va bilim olishning usul va yo'llari uning faolligi bilan ta'lim oluvchiga o'tadi. Buni choynakdagi choyniq piyolaga quyilishiga o'xshatish mumkin. Piyolaga choynakning harakati bilan choy quyiladi va bu jarayonda ikkalasini ham faollashtirish yoki piyolaning faolligini oshirish kutilgan samarani bermaydi. **Bu bilan dars mashg'ulotida o'quvchi faol bo'lmasligi kerak, demochi emasmiz, ammo o'quvchining faolligi o'qituvchining yetarli darajadagi faolligiga xalal bermasligi lozim, chunki dars mashg'ulotining vaqti chegaralangan bo'lib, uning har bir daqiqasi maqsadli sarflanishi lozim.**

Ta'limdagi qarama-qarshi tamoyillar

Ta'lim tizimidagi "ko'tarish" va "tushirish" tamoyillari haqida pedagogikaga doir adabiyotlarda qaydlar mavjud

emas. Ta'lim tizimimizda mavjud ikki xil qarama-qarshi tendensiyani biz shartli ravishda shunday nomladik. Balki bu tamoyil darajasidagi hodisalar emasdir. Balki siz ularni boshqacha nomlarsiz, ammo bu muhim emas. Muhimi, shu ikkala teskari hodisaning ta'lim tizimimizda yonma-yon holda mavjudligidir.

Ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilish va unda samaradorlikka erishish uchun ta'lim oluvchining yetarli darajada qobiliyatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. **Hozirgi kunda dars mashg'ulotining soddalashtirilib, o'yinga aylantirilishi, nazarimizda, qobiliyati yo'q o'quvchilarga bilim berish, dars mashg'uloti paytida ularning diqqat-e'tiborini jalb qilish maqsadida qilinmoqda. Natijada, ta'lim jarayoni qobiliyatli o'quvchilarga ta'lim berish darajasiga ko'tarilmayapti, aksincha, qobiliyati yo'q o'quvchilarga ta'lim berish darajasiga tushirib qo'yilmoqda.** Bu teskari tamoyil oqibatida ta'lim qobiliyatli o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ehtiyojlarini qondirish darajasiga qadar yetib bora olmayapti. Davlat ta'lim standartlarida minimum tushunchasi mavjud. Bu ta'lim bosqichini bitirayotgan o'quvchilarning bilim darajasiga qo'yilayotgan minimum talablarni belgilaydi. Teskari tamoyil natijasida bizning ta'lim tizimimiz o'sha minimum talablar, hatto undan ham past darajada atrofiya o'ralashib qolmoqda. Shu o'rinda bir qiyos keltirmoqchiman: garchi norasmiy bo'lsa-da, repetitorlik ta'limda eng samarador usullardan biri ekanligi hayotda o'z isbotini topib ulgurdi. Eng qizig'i, repetitorlik kamdan kam hollarda o'yin texnologiyalariga murojaat qilishadi. Bu, valo, ular o'quvchilarni bilim darajasiga qarab guruhlashtiradi va dars mashg'ulotini auditoriyadagi eng iqtidorli bolaning ehtiyojlariga qarab tashkil qiladi. Bu esa guruhdagi qolgan o'quvchilar uchun stimol bo'lib, ularning yanada ko'proq intilishiga, pirovardida, ta'lim jarayonining sifat o'zgarishlariga olib keladi. Darhaqiqat, ta'limda aynan tushirish emas, balki ko'tarish tamoyiliga amal qilinish uchun ham repetitorlik eng samarador shakllardan biri sifatida tan olinmoqda.

Shu bilan bog'liq yana bir mulohaza

Bitta guruhda ham qobiliyatli, ham qobiliyatsiz o'quvchilarning ta'lim olishidan har ikki tomon ham birday yuqtazadi. To'g'ri, bizda ta'limning o'rta bosqichlari majburiy bo'lib, ularda faqat qobiliyatli o'quvchilarni saralab olishning imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Ammo o'quvchilarni guruhlashtirish ta'lim muassasasining ixtiyorida bo'lib (majburiy holatlar bundan mustasno), bunda asosiy mezon o'quvchining bilimi bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu borada ta'lim muassasalarida o'quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda guruhlashtirishlariga ta'lim qo'yilmagan. Agar o'quvchilarni guruhlashtirishda ularning qobiliyatlariga qaralsa, bu har bir guruhga alohida dastur



asosida yondashish imkonini beradi. Natijada, qobiliyatli o'quvchilardan iborat guruhlar uchun davlat ta'lim standartlarida nazarda tutilgan o'rta yoki yuqori darajadagi bilim berishga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish va qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, qobiliyati past o'quvchilar bilan esa o'sha minimum talablar darajasidagi dasturlar bilan ish olib boriladi. Ammo har ikkala tipdagi guruhlarda ham guruhdagi eng iqtidorli o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish darajasida dars mashg'ulotlarini tashkil qilish ta'limdagi ko'tarish tamoyilini yuzaga keltiradi. Demak, ta'lim muassasasi rahbari o'z vakolati doirasida bu boradagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralarni ko'rishi lozim.

Demak, pedagogik texnologiyalarni va interaktiv ta'lim metodlarini qo'llashda fanning, mavzuning va o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, natijani oldindan shamalay bilish lozim va an'anaviy dars mashg'ulotiga nisbatan samaradorligi kafolatlangan ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida

O'qituvchilik — sharafi kasb. Uning sharafi shundaki, jamiyatni harakatlantirib turuvchi barcha sohalarning rivojida odamlar ularning zahmatli mehnatini ko'rishadi. Bunday ko'lamli e'tirof shu paytga qadar boshqa biror kasb egalari qo'lyozgan qadar boshqa biror kasb egalari nasib qilmagan, bundan keyin ham nasib qilishi dargumon. Chunki har qanday kasb egalari o'qituvchilar tarbiyalaydi, ammo o'qituvchilarni boshqa hech bir kasb egalari yetishtirib bera olmaydi.

O'qituvchilik — nozik kasb. Nozikligi shundaki, bu kasb egalari odamlar doimo namuna timsoli sifatida qaraydilar. Darhaqiqat, o'qituvchilik odamlarga hatto uyquasi bilan ham ibrat bo'lishi lozim bo'lgan kasbdur. Ong ostida doim o'qituvchi ekanligini eslatib turuvchi "signal" o'qituvchini doim

"forma"da yurishga majbur qiladi. Bu kasb o'z egalari har bir ish yoki xatti-harakatiga nisbatan "men o'qituvchiman" degan munosabat bilan yondashishni talab qiladi. O'qituvchi o'zi uchun restoranda o'ynab-kulishni biroz noqulay, muomalada qo'pollik qilishni nomunosib, spirtli ichimlik ichgan holda jamoat joyida yurishni uyat, janjal yoki to'polon qilishni esa sharmandalik deb hisoblaydi. Aslida bu kabi illatlar barcha insonlarga birdek nomunosib sanalsa-da, odamlar bu borada boshqa kasb egalari qaraganda "o'ng ko'zlarini yumib oladilar". Boshqa kasb egalari nisbatan birmuncha yumshoq talab bilan qarashlari haqiqat, ammo o'qituvchilarga uzoq yillar davomida topgan hurmatini yo'qotishlari uchun birozgina chegaradan chiqishning o'zi kifoya qiladi.

O'qituvchilik — mashaqqatli kasb. Mashaqqati shundaki, boshqa kasb egalari ishi ishxonasida qoladi. Ular uylariga kelgach, oilasi davrasida miriqib horchiq chiqarishadi. O'qituvchilarni esa kasbi doim ortidan "quvlab yuradi". Ular uylariga qaytishgach, ishingning ikkinchi qismi boshlanadi: ertangi dars mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish uchun yangi adabiyotlarni varaqlaydi, mashg'ulotni yangicha metodlar asosida samarali tashkil qilishning rejasini tuzadi, o'quvchilarning daftarini yoki yozma ishlarini tekshiradi, hech bo'lmaganda, konspekt yozadi. Ularning xayoli doim o'zlashtirishi past o'quvchilarni "ko'tarish" yoki qobiliyatli o'quvchilarning iqtidorini to'g'ri yo'naltirish fikri bilan band. Shundan bo'lsa kerak, o'qituvchi yashaydigan xonadonning chiroqlari tonggacha o'chmaydi. Uning derazasidan tushib turgan o'sha xiragina nur, aslida, olamni zimiston-dan, odamlarni jaholatdan, dunyoni esa halokatdan saqlab turibdi.

G'afurjon MUHAMEDOV,
O'zbekiston fan arbobi, professor
Umid XO'JAMQULOV,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Matematika fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
53.	Tenglamani yeching. $\frac{x+2}{2} - \frac{x-6}{3} = \frac{x+4}{2} - \frac{1}{3}$	-30	$\frac{1}{15}$	30	$\frac{1}{15}$
54.	$ x^2+9x = x^2+9x-20$ tenglamani haqiqiy ildizlari yig'indisini toping.	yechimga ega emas	-9	-10	9
55.	$\frac{x^2-3 x -7}{ x } = 3$ tenglamani ildizlari ko'paytmasini toping.	-49	7	-7	49
56.	x_1 va x_2 sonlari $2x^2-3x=6$ tenglamani ildizlari bo'lsa, $\frac{x_1^2}{x_2} + \frac{x_2^2}{x_1}$ ifodaning qiymatini hisoblang.	$-\frac{5}{8}$	$-\frac{11}{4}$	$\frac{5}{8}$	$\frac{11}{4}$
57.	$ 4x-25 = x^2+3x+7$ tenglama necha haqiqiy ildizga ega?	2	3	4	1
58.	$ x^2-5x+4 = x^2-5 x +4$ tenglamani barcha yechimlari to'plamini toping.	$[0;1] \cup [4;+\infty)$	$[4;+\infty)$	$[0;1]$	$[0;+\infty)$
59.	$\sqrt[3]{(x+4)^2} + 4\sqrt{(x-3)^2} + 5\sqrt{x^2+x-12} = 0$ tenglama nechta haqiqiy ildizga ega?	2	1	0	3
60.	$\frac{1}{\sqrt{x^2+2}+3} + \frac{2}{\sqrt{x^2+2}+7} = \frac{1}{2}$ tenglama nechta haqiqiy ildizga ega?	1	0	2	4
61.	Agar a, b va c haqiqiy sonlar uchun $a < 0 < b < c$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda doimo musbat bo'ladigan sonni aniqlang.	$-a+b+c$	$a-b+c$	$a-b-c$	$a+b-c$
62.	$\frac{x^3}{x-2} \leq \frac{9x}{x-2}$ tengsizlikning butun yechimlari sonini toping.	5	4	6	7
63.	Tengsizlikni yeching: $\sqrt[3]{(x-2)^3} + \sqrt[3]{(x-2)^4} \leq 2-x$	$(-\infty; 2]$	$\{2\}$	$[2; \infty)$	\emptyset
64.	$ 25-x^2 \cdot (x^2-10x+21) < 0$ tengsizlikning butun yechimlari soni a bo'lsa, $\frac{a^2+2}{4}$ ni hisoblang.	1,5	0,75	2,75	0,5
65.	$f(x) = \frac{4x}{x+2}$ funksiyani aniqlanish sohasini toping.	$(-\infty; -2) \cup (-2; \infty)$	$(-\infty; -2]$	$(-\infty; 0]$	$(-\infty; -2) \cup [0; \infty)$
66.	$f(x) = kx+2$ funksiya k ning qanday qiymatlarida kamayuvchi bo'ladi?	$k < 0$	$k > 0$	$k = 2n, -1, n \in \mathbb{N}$	$k \in \mathbb{R}$
67.	$f(x) = -x+b$ funksiya b ning qanday qiymatlarida o'suvchi bo'ladi?	b ning hech qanday qiymatida	$b = 2n, -1, n$	$b < 0$	$b > 0$
68.	Grafiği $A(-2;11)$ nuqtadan o'tuvchi $y = kx+5$ funksiya absissalar o'qini qaysi nuqtada kesib o'tadi?	$(\frac{2}{3}; 0)$	$(-\frac{1}{3}; 0)$	$(\frac{1}{2}; 0)$	$(0; \frac{1}{2})$
69.	$y = ax^2+bx+c$ kvadratik funksiyaning grafiği I, II va IV choraklarda yotsa, a, b va c larning har birini nol bilan taqqoslang.	$a > 0, b < 0, c \geq 0$	$a < 0, b > 0, c \geq 0$	$a < 0, b < 0, c \geq 0$	$a > 0, b < 0, c \leq 0$
70.	Agar $a \cdot c < 0$ bo'lsa, $y = ax^2+bx+c$ kvadrat funksiyaning grafiği qaysi choraklarda yotadi?	I, II, III va IV	II, III va IV	I, II va III	I, III va IV

71.	$y = -x^2+bx+c$ kvadrat funksiyaning eng katta qiymati -2 ga teng va unga $x = 2$ nuqtada erishadi. bc ni toping.	-24	24	18	-18
72.	$f(x) = (x-1)^{20} \cdot (\cos x + \sin x)$ funksiyaning $x_0 = 0$ nuqtadagi hosilasini toping.	-19	20	-20	19
73.	Agar $f(x)$ 9-darajali ko'phad bo'lsa, $y = (x-1)^2 \cdot f(x) + x$ funksiyaning $x_0 = 1$ nuqtadagi hosilasini toping.	1	0	2	-1
74.	To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonning to'rtta tomoni 360 m uzunlikdagi devor bilan o'ralgan. Bu yer maydonning eng katta yuzasi necha m ² bo'ladi?	8100	81000	32400	3240
75.	Birinci moddiy nuqta $S_1(t) = t^3 - 3t^2 + 6t + 2$ [m], ikkinchisi $S_2(t) = \frac{1}{3}t^3 + t^2 - 3t + 1$ [m] qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda. Ularning tezlanishlari teng bo'lgan vaqtadagi birinчисining tezligini (m/s) toping. (t - vaqt, s)	6	8	4	9,5
76.	$y = \sqrt{1,44-x^2}$ funksiya grafiğiga o'tkazilgan urinma absissa o'qini $(-2; 0)$ nuqtada kesib o'tsa, uning tenglamasini toping.	$y = \frac{3}{4}x + \frac{3}{2}$	$y = \frac{2}{3}x + \frac{4}{3}$	$y = \frac{4}{5}x + \frac{8}{5}$	$y = \frac{3}{5}x + \frac{6}{5}$
77.	Integralni hisoblang: $\int_0^1 (2x+1) \cos(x^2+x) dx$	$\sin 2$	$-\sin 2$	$2 \sin 2$	$-2 \sin 2$
78.	$f(x) = (10-x^2) \cdot \ln x$ funksiyaning $(4; 7)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ich funksiyasi $F(x)$ bo'lsa, $F(2)$ va $F(3)$ larni taqqoslang.	$F(2) < F(3)$	$F(2) > F(3)$	$F(2) = F(3)$	$F(2) = F(3) + 1$
79.	$x^2 \cdot 3^{\sqrt{x+2}} - 9x^2 = 6 \cdot 3^{\sqrt{x+2}} - 54$ tenglamani ildizlari kvadratlarining yig'indisini toping.	10	16	4	12
80.	$3 \cdot 9^x + 2 \cdot 9^x - 1 \leq 0$ tengsizlikni yeching.	$(-\infty; -0,5]$	$(-\infty; 2) \cup [3; +\infty)$	$(-\infty; 2)$	$[0,5; +\infty)$
81.	$\frac{(7^{x+1}-1) \cdot (2^x-4)}{x-2} > 0$ tengsizlikni yeching.	$(-1; 2) \cup (2; +\infty)$	$(2; +\infty)$	$(-\infty; -1) \cup (2; +\infty)$	$(-1; +\infty)$
82.	$y = 3^{x-3} + 12$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.	$(12; \infty)$	$(-\infty; \infty)$	$[12; \infty)$	$(15; \infty)$
83.	Agar ABC uchburchakning burchaklari $\angle A : \angle B : \angle C = 2 : 3 : 4$ shartlarni qanoatlantirsa, uchburchakning qaysi tomoni eng katta bo'ladi?	AB	AC	BC	aniqlab bo'lmaydi
84.	Ikki to'g'ri chiziq kesishganidan hosil bo'lgan burchaklardan biri ikkinчисidan 36° ga katta bo'lsa, ularning nisbatini toping.	5:4	6:5	4:3	3:2
85.	Tomonlari $4\sqrt{2}; 6$ va 8 ga teng bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazi uchburchakning qayerida joylashgan bo'ladi?	ichki sohasida	tashqi sohasida	eng katta tomonida	eng kichik tomonida
86.	Teng yonli uchburchakning perimetri 32 sm ga teng. Agar teng tomonlarning o'rtalarini tutishtiruvchi kesma uzunligi 6 sm bo'lsa, uchburchakning yuzini (sm ²) toping.	48	42	56	54

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Tarix fanidan test savollari


(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
41.	Ilk o'rt asrlarda hukmdorlik qilgan hukmdorlarni boshqaruv davri boshlanishiga qarab to'g'ri xronologik tartibda berilgan javobni toping. 1) Otton I; 2) Buyuk Karl; 3) Yustinian I; 4) Buyuk Alfred	3, 2, 4, 1	3, 2, 1, 4	2, 3, 4, 1	2, 3, 1, 4
42.	Quyidagilardan Germaniyada XII asr ikkinchi yarmi — XIII asr boshlarida hukmdorlik qilgan sulolani toping.	shtaufenlar	lyuksemburglar	karolinglar	saksoniyaliklar
43.	O'rt asrlarda Xitoyda Marko Polo va Chjan Xe qaysi sulolalar davrida faoliyat olib borgan?	Yuan va Min	Sun va Yuan	Tan va Min	Tan va Sun
44.	Eron tarixida bo'lib o'tgan voqealar to'g'ri xronologik tartibda berilgan javobni toping. 1) Safaviylar davlati vujudga keldi; 2) Qajarlar sulolasi hukmdorligi o'rnatildi; 3) Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi; 4) Afg'onlar yetakchisi Mir Mahmud Eron shohi deb e'lon qilindi	1, 4, 3, 2	1, 4, 2, 3	3, 1, 4, 2	3, 2, 4, 1
45.	Zahiriddin Muhammad Bobur 1500-yilda qaysi hukmdor qo'shinlarini mag'lub etib Samarqand taxtini egallagan?	Muhammad Shayboniyxon	Xusravshoh	Boysung'ir Mirzo	Sulton Ali Mirzo
46.	Qoraqalpqlarning Oyoq'stibiy boshchiligidagi qo'zg'oloni qaysi Xiva xoni davrida yuz bergan?	Olloqulixon	Rahimqulixon	Muhammad Rahimxon I	Eltuzarxon
47.	1841-yilda taxtdan voz kechgan Qo'qon xonini toping.	Muhammad Alixon	Sulton Mahmudxon	Umarxon	Sheralixon
48.	Quyidagilardan Xiva xoni Sherg'ozixon bilan bir asrda hukmdorlik qilgan qozoq xonini aniqlang.	Abulxayrxon	Keldimhammad	Tavakkal	Surtoysi
49.	Xiva xonligida kimning hukmdorligi davrida podsho Rossiyasi N.Muravyov rahbarligida maxsus ekspeditsiya yuborgan?	Muhammad Rahimxon I	Olloqulixon	Rahimqulixon	Eltuzarxon
50.	Sibir ma'muriyati Toshkent hokimligiga o'z elchilarini yuborgan yillarni belgilang.	1794- va 1796-yillar	1784- va 1796-yillar	1784- va 1799-yillar	1786- va 1795-yillar
51.	Quyidagi qaysi atama dastlab sudya, advokat, notarius, shifokorlarga nisbatan ishlatilgan?	burjuaziya	aristokratiya	abolitionist	samoderjaviya
52.	XVIII asr oxirida "Shubhali kishilar to'g'risida" qonun qabul qilingan davlatni belgilang	Fransiya	Buyuk Britaniya	Rossiya	Germaniya
53.	Fransiya nechanchi yillarda imperiya deb e'lon qilingan?	1804-yilda va 1852-yilda	1804-yilda va 1840-yilda	1799-yilda va 1852-yilda	1799-yilda va 1848-yilda
54.	AQShning qaysi prezidenti "Uotergeyt ishi" deb nom olgan voqea tufayli o'z lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'lgan?	R.Nikson	J.Kennedi	R.Reygan	D.Eyzenxauer
55.	1932-yilda AQShda prezidentlik saylovida g'alaba qozongan shaxsni belgilang.	F.Ruzvelt	G.Guver	V.Vilson	D.Eyzenxauer
56.	1938-yilda SSSR hududiga bostirib kirgan davlatni belgilang.	Yaponiya	Germaniya	Italiya	Buyuk Britaniya

№	Savol	A	B	C	D
57.	1943-yilda antifashist koalitsiya davlatlari AQSh, Buyuk Britaniya va SSSR rahbarlarining uchrashuvi qaysi shaharda o'tkazilgan?	Tehronda	Yaltada	Londonda	Potsdamda
58.	Quyidagi hukmdorlardan qaysi birining hukmdorligi davrida muntazam qo'shinning harbiy xizmatchilariga mansab darajasiga qarab maosh to'langan?	Amir Nasrullo	Muhammad Rahimbiy	Amir Haydar	Dinno-sirbek
59.	Tarixga "Afrika yili" sifatida kirgan yilni toping.	1960-yil	1955-yil	1949-yil	1970-yil
60.	O'zbek milliy kurashi bo'yicha birinchi xalqaro musobaqa qaysi shaharlarda o'tkazilgan?	Termiz va Shahrisabz	Buxoro va Samarqand	Termiz va Samarqand	Buxoro va Shahrisabz
61.	Germaniya tarixi bilan bog'liq bir yilda sodir bo'lgan voqealar keltirilgan javobni aniqlang.	Yakshanba dam olish kuni deb belgilandi; Shovinistik tashkilot — "Germaniya ittifoqi" tuzildi	Germaniya Afrikaning Togo va Kamerun hududlarini egalladi; Bismark hukumati katolik cherkovining ta'sirini kamaytirishga qaratilgan maxsus qonunni qabul qildi	Bismark Reyxstag oldiga sotsialistlariga qarshi qonunga doimiy tus berish masalasini qo'ydi; Bismark kanslerlik lavozimidan iste'foga chiqdi	Vilgelm II "hazrati Iso qabri"ni ziyorat qilish bahonasi bilan Falastinga bordi; Germaniya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi
62.	Yaponiya Millatlar Ligasidan chiqqan (a), Turkiya Millatlar Ligasiga kirgan (b) yillar to'g'ri berilgan javobni aniqlang. 1) 1931-yil; 2) 1932-yil; 3) 1933-yil; 4) 1936-yil	a-3, b-2	a-1, b-2	a-2, b-4	a-1, b-4
63.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan bir yilda qabul qilingan qonunlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) "O'zbekiston Respublikasi Prezident saylovi to'g'risida"gi; 2) "Tolim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun; 3) "Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida"gi; 4) "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi	1, 3	1, 4	2, 4	2, 3
64.	Ahamoniylar tomonidan bosib olingan hududlar boshqaruvi (satraplik) haqida to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) satrapliklarning ko'pchiligi mahalliy sulola vakillari tomonidan boshqarilgan; 2) bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun butun mamlakat satrapliklarga bo'lingan; 3) satrap cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan; 4) satraplarning ko'pchiligi ahamoniylar sulolasi vakili bo'lgan; 5) satrap mahalliy sulolalar bilan o'zaro bo'lisib hokimiyatni boshqargan.	1, 3, 5	1, 2, 5	2, 3, 4	2, 4, 5

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Sarmoyadorlar diqqatiga!



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 23-iyundagi 404-son qaroriga muvofiq Xalq ta'limi vazirligi xalq ta'limi sohasida "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetini tashkil etish maqsadida hamkorlikka chaqiradi.

Hamkorlik obyekti:

Toshkent shahri, Yashnobod tumani, "G'alabaniy 40 yilligi" 2-mavzesida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar tegishli hududi bilan birga "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetini joriy etish maqsadida investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish sharti bilan "nol" xarid qiymatida beriladi.

Investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar:

Potensial investorga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

o'z mablag'lari hisobidan Universitetning faoliyatini moliyalashtirish, obyektlarni rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, jihozlash va foydalanishga topshirish, shuningdek, ularga tegishli hududni obodonlashtirish;

Universitet tomonidan belgilangan qabul parametrlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi buyurtmasiga ko'ra "The Times Higher Education World University Rankings" reytingidagi dunyoning 1000 talikka kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida imtiyozli grantlar ajratish yo'li bilan tegishli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirish;

Universitetga berilayotgan obyektida ta'lim xizmatlari ko'rsatish yuzasidan faoliyatni amalga oshirish.

Universitetda o'qitish O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari talablarini inobatga olgan holda, Universitet va uning xorijiy hamkori tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Investorlar tomonidan qiziqish bildirilganda taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati:

- yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
- "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetini tashkil etish va rivojlantirish konsepsiyasi;
- Universitet tashkil qilish uchun ajratilayotgan Toshkent shahri, Yashnobod tumani, "G'alabaniy 40 yilligi" 2-mavzesida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli qurilishi tugallanmagan bino va inshootlarni ta'mirlash-tiklash bo'yicha plan-shet yoki prezentatsiya, amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan investitsiyalar miqdori hamda ularning mavjudligini tasdiqlovchi bank hujjatlari bilan birga;
- "The Times Higher Education World University Rankings" reytingidagi dunyoning 1000 talikka kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari orasidan hamkorlik qilish rejalashtirilayotgan OTMLar nomlari, aloqa xatlari yoki boshqa turdagi kelishuv hujjatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi buyurtmasiga ko'ra imtiyozli grantlar asosida tayyorlanadigan mutaxassislar miqdori, muddati va shartlari bo'yicha taklif.

Muddatlar:

Hamkorlik qilishni istagan sarmoyadorlar 2020-yilning 31-iyul kuniga qadar quyidagi manzil bo'yicha o'z takliflarini taqdim etishlari mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 100187, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2-"A" uy.

Ushbu takliflarning har bir varag'i taklif beruvchining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan, to'liqligicha yopilgan konvertlarga joylashtirilgan bo'lishi shart. Ochiq konvertlarda berilgan, muhr va imzolar bilan tasdiqlanmagan yoki qisman tasdiqlangan takliflar ko'rib chiqilmaydi.

Bog'lanish uchun:

Gafurov Adham, tel.: +998 99 833 03 18

Elektron pochta manzili: ipu@itsm.uz

*Loyiha bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 23-iyundagi 404-sonli qarorida ko'rsatilgan.

E'LON

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshida tashkil etilgan Kasbiy qayta tayyorlash kursiga pedagogik va nopedagogik ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni (chizmachilik, tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, YChT fanlaridan tashqari) barcha fan yo'nalishlari bo'yicha o'qishga taklif qiladi.

O'qishga kirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- diplom ilovasi bilan (asli);
- pasport nusxasi (pasport shaxsan ko'rsatiladi);
- mehnat daftarchasidan ko'chirma;
- ish joyidan ma'lumotnoma;
- 6 dona 3x4 o'lchamdagi rasm.

Ma'lumot uchun telefonlar:

(90) 931-60-73, (97) 700-28-73.



Mirobod sanoat kasb-hunar kolleji faoliyati 2020-yil 1-avgust sanasidan

TUGATILADI.

Da'vo va arizalar Mirobod tumani, Sarako'l ko'chasi, 1-uy manzili-da qabul qilinadi.

Murojaat uchun tel.:

(90) 960-62-67.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi O'quv ustaxonalari, texnik reglament va metrologik nazorat xizmati metrologiya xizmati bo'limi boshlig'i Mahamadjon Botirovga padari buzrukvori

Ahmad ota BOTIROVning

vafot etganligi munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2020/2021-O'QUV YILI UCHUN QABUL E'LN QILADI

Institutida hozirgi kunda 11000 nafardan ortiq talaba tahsil oladi. Ularga 350 nafar professor-o'qituvchilar ilm sirlarini o'rgatmoqda.

6 ta fakultet, 21 ta kafedra mavjud. 2019/2020-o'quv yili kunduzgi ta'limga 25 ta ta'lim yo'nalish bo'yicha kvota ajratilgan edi. 2020/2021-o'quv yiliga 27 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul kvotasi uchun buyurtmalar berildi.

2020/2021-o'quv yilida kunduzgi ta'lim shakliga 1700 ta qabul kvotasi ajratildi hamda 2 ta yangi ta'lim yo'nalishi ochildi: (5112200 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili), 5112300 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport).

Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	2020/2021-o'quv yili uchun qabul parametrlari			Davlat granti asosida					To'lov-kontrakt asosida				
		Jami	shu jumladan		Jami	shu jumladan				Jami	shu jumladan			
			grant	kontrakt		O'zbek	Rus	Tojik	Qozoq		O'zbek	Rus	Tojik	Qozoq
36	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	1700	405	1295	405	305	70	15	15	1295	990	205	50	50
5110100	Matematika va informatika	175	45	130	45	35	10	-	-	130	115	15	-	-
5110200	Fizika va astronomiya	100	25	75	25	20	5	-	-	75	55	20	-	-
5110300	Kimyo	100	25	75	25	20	5	-	-	75	55	20	-	-
5110400	Biologiya	100	25	75	25	20	5	-	-	75	55	20	-	-
5110500	Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari	50	15	35	15	15	-	-	-	35	35	-	-	-
5110600	Tarix	50	15	35	15	15	-	-	-	35	35	-	-	-
5110800	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi	50	15	35	15	15	-	-	-	35	35	-	-	-
5110900	Pedagogika va psixologiya	50	10	40	10	10	-	-	-	40	40	-	-	-
5111100	Musiqqa ta'limi	50	20	30	20	20	-	-	-	30	30	-	-	-
5111200	O'zbek tili va adabiyoti	75	25	50	25	25	-	-	-	50	50	-	-	-
5111300	Ona tili va adabiyoti:													
5111300	Ona tili va adabiyoti: rus tili va adabiyoti	50	15	35	15	-	15	-	-	35	-	35	-	-
5111300	Ona tili va adabiyoti: tojik tili	25	5	20	5	-	-	5	-	20	-	-	20	-
5111300	Ona tili va adabiyoti: qozoq tili va adabiyoti	25	5	20	5	-	-	-	5	20	-	-	-	20
5111400	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili	100	15	85	15	10	5	-	-	85	65	20	-	-
5111400	Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili	25	5	20	5	5	-	-	-	20	20	-	-	-
5111600	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi	50	15	35	15	15	-	-	-	35	35	-	-	-
5111700	Boshlang'ich ta'lim	125	25	100	25	10	5	5	5	100	50	20	15	15
5111800	Maktabgacha ta'lim	125	25	100	25	10	5	5	5	100	50	20	15	15
5111900	Defektologiya (faoliyat turlari bo'yicha)	50	15	35	15	15	-	-	-	35	35	-	-	-
5112000	Jismoniy madaniyat	75	15	60	15	15	-	-	-	60	60	-	-	-
5112000	shu jumladan, xotin-qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha	25	5	20	5	5	-	-	-	20	20	-	-	-
5112100	Texnologik ta'lim	50	10	40	10	10	-	-	-	40	40	-	-	-
5112200	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)	50	5	45	5	5	-	-	-	45	45	-	-	-
5112300	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport	50	5	45	5	5	-	-	-	45	45	-	-	-
5611700	Maktab menejmenti	50	10	40	10	10	-	-	-	40	40	-	-	-
5112500	O'zga tilli guruhlarda rus tili	50	15	35	15	-	15	-	-	35	-	35	-	-

2020/2021-o'quv yilida sirtqi ta'lim shakliga 13 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1200 ta qabul kvotasi ajratildi.

Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	2020/2021-o'quv yili uchun qabul parametrlari	Jami	shu jumladan			
				O'zbek	Rus	Tojik	Qozoq
35	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	1200	1 200	1 025	75	50	50
5110100	Matematika va informatika	75	75	50	25	-	-
5110400	Biologiya	75	75	75	-	-	-
5110600	Tarix	75	75	75	-	-	-
5110800	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi	25	25	25	-	-	-
5110900	Pedagogika va psixologiya	75	75	75	-	-	-
5111100	Musiqqa ta'limi	50	50	50	-	-	-
5111200	O'zbek tili va adabiyoti	75	75	75	-	-	-
5111600	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi	75	75	75	-	-	-
5111700	Boshlang'ich ta'lim	200	200	125	25	25	25
5111800	Maktabgacha ta'lim	275	275	200	25	25	25
5112000	Jismoniy madaniyat	75	75	75	-	-	-
5112100	Texnologik ta'lim	75	75	75	-	-	-
5112300	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport	50	50	50	-	-	-

O'tgan o'quv yilida kechki ta'lim shakliga 5 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha kvotalar ajratilgan bo'lsa, 2020/2021-o'quv yilida kechki ta'lim shakliga 7 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 324 ta qabul kvotasi berildi.

Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	2020/2021-o'quv yili uchun qabul parametrlari	Jami	shu jumladan			
				O'zbek	Rus	Tojik	Qozoq
17	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	325	325	325	-	-	-
5110100	Matematika va informatika	50	50	50	-	-	-
5110200	Fizika va astronomiya	50	50	50	-	-	-
5110300	Kimyo	50	50	50	-	-	-
5110400	Biologiya	50	50	50	-	-	-
5110800	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi	25	25	25	-	-	-
5111400	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili	25	25	25	-	-	-
11700	Boshlang'ich ta'lim	75	75	75	-	-	-

2019/2020-o'quv yilida magistraturaga 7 ta mutaxassislik bo'yicha qabul kvotasi ajratilgan bo'lsa, 2020/2021-o'quv yilida magistraturaga 15 ta mutaxassislik bo'yicha 86 ta qabul kvotasi ajratildi.

Shifr	Mutaxassisliklari nomi	2020/2021-o'quv yili uchun qabul parametrlari		
		Jami	shu jumladan	
			grant	kontrakt
35	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	86	20	66
5A110101	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (matematika)	6	6	-
5A110201	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (fizika va astronomiya)	6	1	5
5A110301	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo)	6	1	5
5A110401	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya)	6	1	5
5A110501	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya)	6	1	5
5A110801	Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati	6	1	5
5A110902	Pedagogika va psixologiya	6	1	5
5A110903	Ta'lim muassasalarining boshqaruvi	4	1	3
5A111201	O'zbek tili va adabiyoti	6	1	5
5A111301	Ona tili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti)	6	1	5
5A111301	Ona tili va adabiyoti: qozoq tili va adabiyoti	4	1	3
5A111401	Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)	8	1	7
5A111601	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)	4	1	3
5A111901	Maxsus pedagogika, defektologiya: surdopedagogika	6	1	5
5A112001	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi	6	1	5

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun:

Saytlar: cspi.uz, edu.uz, dtm.uz. Telegram kanali: @rvchdpi2017, @eduz. Call-centr telefon raqami: +998707124541, +998707124540, +998955123383



Qo'ng'iroq chalinguncha

Telba Hikoya

Robert de Bonniyega

— Shoshmang, — dedi janob Matiye Endolin, — loyxoraklar menga urush davridagi dahshatli voqeani eslatib yubordi. Kormey atrofida uyim borligini bilasiz. Prussiyaliklar kelgan payti o'sha yerda yashar edim.

Mening bir g'alati telba ayol qo'shnim bor edi. Bir falokat tufayli uning es-hushi yo'qolgandi. Bir qancha vaqt avval u bir oy ichida ham otasidan, ham onasidan, ham yangi tug'ilgan chaqalog'idan ayrilgan edi. O'lim bir xonadonga kelsa, xuddi eshikni tanib qolgandek, yana tez qaytadi, deyishadi-ku.

Bechora juvon qayg'uga botib to'shakka mixlanib qoldi va olti hafta davomida alahsirab chiqdi. Keyin esa alahsirash o'rmini sokin tushkunlik egalladi. U umuman harakatsiz, juda kam ovqat yer, faqatgina ko'zlarini ochib-yumadigan bo'lib qoldi. Har safar uni o'midan turg'izishga harakat qilishganida, xuddi uni o'ldirishayotgandek qattiq qichqirar edi. Shunday qilib u to'shakka mixlanib qoldi. U uni faqatgina yuvintirish va o'rmini almashtirish paytidagina joyidan qo'zg'atishar edi.

Yonida qari xizmatkor qolgan edi: unga suv ichirar va yaxna go'shtdan chaynab berardi. Ayolning umidsiz qalbida nimalar yuz bermoqda edi, buni bila olmasdik. Chunki u gapirmay qo'ydi. Balki marhumlar haqida o'ylardi? Yoki bo'lmasa, biror g'amgin tush ko'ryaptimi? Yoki vayron bo'lgan o'y-xayollari oqimdan qolgan daryodek harakatsiz bo'lib qoldimi?

O'n besh yil davomida u shu tarzda harakatsiz va uyida qamalib yashadi. Urush boshlanib ketdi va dekabrning ilk kunlaridayoq prussiyaliklar Kormeygacha yetib keldi. Xuddi kechagidek esimda bari. Havo etni junjiktiradigan darajada sovuq edi; ularning og'ir va bir ritimli qadam tovushlarini eshitganimda kreslodada podagradan qimirlayolmaydigan bo'lib cho'zilib yotgan edim. Derazamdan o'tib ketishganini ko'rdim. Ular o'zlariga xos bo'lgan qo'g'irchoq yurish bilan tinmay parad qildilar. Keyin komandirlar odamlarini aholiga bo'lib tashladi. Menikiga o'n yetti kishi keldi. Telba qo'shninga esa qo'mondon bilan birga o'n ikki kishi birlashtirildi. Qo'mondon haqiqiy jangari, shafqatsiz va qattiqqo'l odam edi.

Dastlabki kunlarda hammasi risoladagidek kechdi. Yonimizdagi ofitserga ayolning kasal

ekanini aytdik, ammo u ahamiyat ham bermadi. Ammo tez orada biz hech qachon ko'rmagan bu ayol ofitserning sabr-kosasini to'ldirdi; u kasallik haqida so'ray boshladi, biz qayg'uli falokatdan keyin xizmatkori o'n besh yil uning yonida qolganini aytdik. Shubhasiz, u ishonmadi va bechora telba o'z o'midan mag'rurlikdan, prussiyaliklarni ko'rmaslik, ular bilan gaplashmaslik va ularga yaqinlashmaslik uchun turmayapti deb o'yladi. Ayol uni qabul qilishini talab qildi va unga eshikni ochib berishdi.

Qo'pol ohangda undan so'radi:

— Sizga iltimos qilish kerakmi? Xonim, o'rningizdan turing va tashqariga chiqing.

Ayol o'zining xiralashgan, bo'm-bo'sh ko'zlarini u tomonga qarattirdi va javob bermadi.

Qo'mondon gapida davom etdi:

— Manmanlikka toqat qilolmayman. Agar o'z istagingiz bilan o'rningizdan turmasangiz, o'zim sizni sayr qildirishning yo'lini topaman.

Ayol har doimgidek sokin, xuddi uni ko'rmagandek, umuman ahamiyat bermadi. Qo'mondon ushbu jimlikni nafratning oliy namunasi sifatida baholab, jahli chiqa boshladi. Keyin shunday deb qo'shib qo'ydi:

— Agar ertaga ham tushmasangiz...

Keyin chiqib ketdi. Ertasiga ertalab, sarosimaga tushgan qari xizmatkor ayolning kiyimini almashtirmoqchi bo'lganida, uni urib qichqira boshladi. Ofitser zudlik bilan yuqoriga ko'tarildi va xizmatkor uning oyoqlariga yiqilib, yolvord:

— U xohlamayapti, janob, xohlamayapti, uni kechiring, iltimos, u juda baxtsiz.

Qo'mondon xijolat bo'lib qoldi, jahli chiqib turgan bo'lishiga qaramasdan, askarlariga ayolni karovatidan qo'zg'atirishga jur'at qilmadi. Ammo to'satdan kunliq yubordi va nemischalab buyruq berdi.

Birozdan keyin rota xuddi yaradorni ko'tarib chiqayotgandek, ayolni matras bilan ko'tarib olib chiqdi. Telba ayol esa hech narsaga parvo qilmasdi, sokin va tinch edi. Orqadan bir askar bir sumka ayollar kiyimini ko'tarib chiqdi. Keyin ofitser qo'llarini ishqalab shunday dedi:

— Agar o'zingiz kiyinib sayr qila olmasangiz, buni juda yaxshilab qildira olamiz.

Keyin esa kortej Imovil o'rmoniga qarab ketdi. Ikki soatdan so'ng askarlar o'zlari qaytib kelishdi.

Gi de MOPASSAN

Telba ayolni esa qaytib hech kim ko'rmadi. Uni nima qilishdi? Qayerga olib borishdi? Hech qachon bilolmadik. Qor o'rmonlar-u yaylovlarni muzli matoga kafanlab, tun-u kun yog'ardi. Bo'rilar eshiklarimiz oldigacha kelib uvullardi.

Yo'qolgan ayol haqidagi o'y-xayollar meni tinmay ta'qib qilardi; bir necha bor Prussiya

Asliyatdan tarjima

rasmiylariga ma'lumot so'rab murojaat qildim. Sal qolsa, otilib ham ketar edim.

Bahor qaytdi. Bosqinchi qo'shin chekindi. Qo'shnimning uyi esa yopiqligicha qoldi; yo'laklarda maysalar nish ura boshladi. Qari xizmatkor qishda vakof etgan edi. Ushbu voqealar haqida mendan boshqa hech kim o'ylamas ham edi. U ayolga nima qilishdi, o'rmonda ulardan qochib ketdimikan? Yoki undan biror xabar olishning imkonini qoldirmasdan, birorta shifoxonaga joylab qo'yishdimi?

Hech narsa mening shubhalarimni yengillata olmasdi. Ammo vaqt o'tishi bilan yuragimdagi og'irlik kamayib bordi. Shunday qilib kelasi kuzda loyxoraklar ommaviy uchib o'tishdi va mening kasalim ham chekina boshlagan edi. O'rmonga borishga qaror qildim. To'rt-beshta qushni ovlagan edim, ammo ularni ositirib yurganimda bittasi shox-shabba bilan to'la chuqurga tushib ketdi. Men esa o'ljamni olib chiqish uchun chuqurga tushishga majbur bo'ldim. U esa bir o'likning boshi yonida turardi. Shu zahoti telba qo'shnim haqidagi xotiralar ko'kragimga must urilgandek bo'lib keldi. Balki mazkur qayg'uli yilda boshqalar ham bu o'rmonga chiqarib tashlangandir, lekin, bilmadim, negadir men o'sha bechora ayolning boshi ekanligiga judayam amin edim.

To'satdan hammasiga tushundim, hammasini anglab yetdim. Ular ayolni shu matras ustida, sovuq va xilvat o'rmonda tashlab ketishgan. O'zining qat'iy fikriga sodiq ayol esa qorning hatto oyoq-qo'llarini qimirlatmasdan o'limni kutib olgan.

Keyin esa bo'rilar uni tilka-pora qilib tashlashgan. Qushlar esa uning yirtilgan matrasining junlaridan o'zlariga in yasashgan. Men esa bu ayanchli suyakni o'zimga saqladim va farzandlarimiz qaytib urush ko'rmasliklarini tiladim.

Fransuz tilidan
Jahongir OSTON tarjimasi

F.I. TYUTCHEV

"Kuzning ilk damlarida..."

Kuzning ilk damlarida bo'lar Qisqa, lekin ajib bir muddat — Kunlar xuddi billurga to'lar, Oqshomlari nurdan iborat...

O'roq o'ynab, yiqildi boshqoq, U joylar bo'sh — kenglik, atrofda O'rgimchak in iplari quvnoq, Yaltraydi jimjit shudgorda.

Havo bo'shar, sayramas qushlar, Uzoq, lekin ilk qish bo'ronga Toza, iliq ko'k rang quyilar, Hordiq chiqaryotgan maydonga.



Anna AXMATOVA

"Foshkent gullayapti"

Xuddi kimdir buyruq berganday, Shahar birdan yorishib ketdi — Yengil, oppoq bo'lib sharpaday Har hovliga u borib yetdi.

Nafaslari aniqroq so'zdan, O'xshashi yo'q, tanhodir ular. To'q moviyrang osmon bag'ridan Ariq tubi bo'ylab o'rtnashar.

Aleksandr BLOK

"Fun, ko'cha, chiroq, dorixonona"

Tun, ko'cha, chiroq, dorixonona, Ma'nosiz va yorug'ligi past. Chorak asr sen yasha yana — Shunday qolar, aslo o'zgarmas.

O'lsang — qayta boshlansa avji Takrorlanar, bo'lmas o'z'gacha: Tun, kanalning muzlagan mavji, Dorixonona, chiroq va ko'cha.

Rus tilidan Buloqbo'shi tumanidagi
15-maktabning rus tili va adabiyoti o'qituvchisi
Dilmurod UBAYDULLAYEV tarjimasi.

Sabr ziyodir

Insonni komillikka yetaklaydigan eng go'zal fazilatlardan biri sabrdir.

Har bir o'qituvchi, ota-ona, tarbiyachi ta'lim va boshqa narsalardan tarbiyani ustun qo'yishi lozim. Tarbiya olgan bolaning ke-lajakda bilim olish saviyasi ham ortadi. Tarbiyada "sabr" so'zi "Chidam, toqatli bo'lish, bardoshli bo'lish, tiyilish" ma'no-larini anglatadi. Istilohda esa qiyinchilik va musibatlariga bardosh berish, qayg'u, tushkunlikka tushmaslik "sabr" deyiladi. Sabr insonni cheksiz, hisobsiz zafarlarga, muvaffaqiyatlarga eltadi. Azaldan ota-bob-olarimiz bejiz aytishmagan: savobga erishish uchun sabr-chidam kerak. Ammo sabr degani jim turish degani emas, chidam bilan harakat qilish demakdir. Sabr har bir insonga zarur bo'lgan sifatdir. Hadislarda aytilganidek, "Ne'matlar ham bir mehmon, ularni izzat-ikrom qilish, shukur esa sabr bilan bo'ladi". Sabr imonning boshidir, agar insonning tanasi boshidan judo qilinsa u halok bo'lgani kabi, sabr bo'lmasa, imon ham halokatga yuz tutadi.

Ulamolar aytishicha, uch narsani — sadaqa, og'riq va musibatni yashirish yaxshilik xazinasidir. Zero, sabr nur kabi qiyinchilik zulmatini ketkizadi va haqiqatni namoyon qiladi.

Naimaxon ABDULAHAYEVA,
Kosonsoy tumanidagi
4-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Yangibozorlik polvon qiz

O'zbek qizlari sport sohasida yuqori natijalarga erishmoqda, dunyo maydonlarida yigitlardan qolishmay vatan bayrog'ini ko'kka ko'tarib kelishayotir. Mohinur Rustamova ham shunday sportchi qizlardan.

Mohinur Rahmonova 2004-yilning 7-avgustida Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi Pahlavon Mahmud mahallasida tug'ilgan. Hozir tumandagi 6-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi. Yangibozorlik bu qiz yoshlik chog'idan sportga oshno tutindi. Maktabning sport seksiyasi murabbiyi Gulyor Rahmonovadan belbog'li kurash sir-asrorlarini o'rganishga kirishdi. Ustozining maslahatlariga tayyanib shug'ullandi, mashg'ulotlarni esa maromiga yetkazishni odatiga aylantirdi. Tabiiyki, uning sa'y-har-

akatlari besamar qolmadi. Qisqa fursat ichida tuman, keyinchalik, viloyat miqyosidagi musobaqalarda nom qozondi, g'olib va sovrindor bo'ldi. Oradan bir yil o'tib, Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida 2004–2005-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ilk bor qatnashdi. Debyuti omadli chiqdi, bronza medali bilan taqdirlandi. Shunga ham ikki yil bo'libdi.

O'tgan yilgi musobaqalar kurashchi qizga quvonchli lahzalarni tuhfa etdi. Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida



o'tkazilgan mamlakat chempionatining 63 kilogramm vazn toifasidagi qatnashchi qizlar orasida ilk bor O'zbekiston chempioni nomini qo'lga kiritdi. Bu yutuq unda o'ziga ishonch uyg'otdi, ulkan marralar sari yetakladi. Buning samarasi 8–11-avgust kunlari Toshkent viloyati Olmaliq shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun 15–17 yoshli o'g'il va qizlar o'rtasi-

da bo'lib o'tgan jahon chempionatida bronza medalini bo'yniga ildi. Shu yili u yana bir nechta nufuzli musobaqalarning sovrindorlari safidan joy oldi.

2020-yil xorazmlik polvon qiz uchun muvaffaqiyatli boshlandi. Mart oyi boshida Navoiy viloyati Nurota tumanida tashkil etilgan mamlakat kubogida o'z yoshi va vazni toifasida barcha raqiblarning yelkasini yerga tekizib, birinchi marta O'zbekiston kubogi sohibiga aylandi.

Ayni damda Mohinur Rahmonova Yangibozor tumani bolalar-o'smirlar sport maktabiga qatnab, belbog'li kurash bo'yicha Xorazm viloyatining tajribali treneri, xalqaro toifadagi hakam Bekbergan Boltayev qo'l ostida mahoratini yuksaltirmoqda, buning barobarida, yangi marralarni egallash ishtiyoqida tinimsiz izlanyapti.

Ikrom XUDOYBERGANOV

Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizining 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika) ixtisosligi bo'yicha "Akademik litseylarda rivojlantiruvchi ta'lim asosida matematika o'qitishni takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 9-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@uamail.uz

Taylavov Ulug'bek Norbekovichning 13.00.06 — Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha "Ta'lim muassasalarining yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish va joriy etish texnologiyalari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 9-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@uamail.uz

Soliyev Iqrorjon Retozikovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Qisqa masofaga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Erboyev Shavkat Ochiltoshevichning 05.09.02 — Asoslar, poydevorlar va yerosti inshootlari. Ko'priklar va transport tonnellari. Yo'llar, metropolitenlar ixtisosligi bo'yicha "Temir yo'llarda ekspluatatsiya qilinayotgan temir-beton ko'priklar yuk ko'tarish qobiliyatini texnik diagnostika asosida aniqlash usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 18.30.12.2019.T.09.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.
Tel/faks: (71) 232-14-39, e-mail: tadi_info@edu.uz

Mahmudova Dilfuza Abdulazizovnaning 05.09.02 — Asoslar, poydevorlar va yerosti inshootlari. Ko'priklar va transport tonnellari. Yo'llar, metropolitenlar ixtisosligi bo'yicha "Avtomobil yo'li poyi ishchi qatlamidagi lyosimon gruntlarning ko'p martalik yuklamalar ta'siridagi mustahkamlik tavsiflari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 18.30.12.2019.T.09.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.
Tel/faks: (71) 232-14-39, e-mail: tadi_info@edu.uz

Ismoilova Shoira Tolkunovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Temir tanqisligi kamqonligi va preyeklampsiya bilan og'rigan homiladorlarning davolanishini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 8-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14, e-mail: tashpmi@gmail.com

Xakimov Jamshid Oktyamovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish ("Kompyuterli loyihalash" o'quv fani misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03.30.12.2019.Red.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Turdiyeva Zilola Vaxabjanovnaning 15.00.01 — Dori texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Ziziphus jujube Mill. mevasi asosida gipotenziv dori vositasini olish texnologiyasi" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 9:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Mamasoliyeva Shaxnoza Askarovnaning 15.00.01 — Dori texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Qon quyilishiga qarshi Asfinol tabletkasi tarkibi va ishlab chiqish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Yunusova Gulshoda Dilshadovnaning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy koreys tilida ko'makchi fe'llarning semantik-funksional xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-iyul kuni soat 12:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks:(71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sarq_ilmij@mail.ru

Sulaymonova Hulka Mo'minjonovnaning 10.00.10 — Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Abu Mansur Sa'olbiyning "Kanzu-l-kuttab" tazkiri va uning manbashunoslik tadqiqi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-iyul kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sarq_ilmij@mail.ru

Ergasheva Gulchehra Turobovnaning 17.00.02 — Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha "Chang cholg'usining genezisi va rivojlanish jarayonlari (changsimon cholg'ular misolida)" mavzusidagi (san'atshunoslik fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019.San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 16-iyul kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz



Gazetaga munosabat qachon o'zgaradi?!

Bir necha yil ilgari gazetada Charli Chaplinning qizi Jeraldinaga yozgan, yangi tarjima qilingan maktubi chop etilgan edi. Ushbu maktub endi ko'llej o'quvchisi bo'lib, o'smirlik yillaridan balog'atga qadam qo'yayotgan, turli o'y-fikrlar ummonida nima axtarayotganini bilmay yurgan bir qizning taqdirida katta rol o'ynadi.

U ko'p narsalarni o'zgartirishimga turtki bo'lgani uchun, gazetani yillar bo'yi asrab yurdim. Nimadir bo'ldi-yu, keyin uni yo'qotdim. So'ng internet sarhadlaridan menga doimo kuch berib, hamroh bo'lib kelgan mazkur maktabni izlashga tushdim. Natija bo'lmadi.

Ancha o'tib yo'qotilgan gazetani bexos topib oldim. O'sha vaqt gazetani qo'limga olar ekanman, unda qog'oz va yozuvdan tashqari, ko'p yillik xotiralirim, qachonlardir bu gazetani o'qib chiqargan xulosalar, hayajonlarning nafasini his qildim. Gazeta sahifalarida o'tmishim jonlangandek, uning hidida ham, titilgan, sarg'aygan varaqlarida ham hayotimning bir bo'lagi bordek, allaqanday kechinma paydo bo'ldi.

Gazeta faqat yorituvchi emas, insonning kundaligi ekanligi, odamlarning hayot sahifasiga o'z sahifasi bilan katta hissa qo'sha olishi mumkinligini tushundim.

Biroq bugun jamiyatda gazetaga munosabat og'riqli. Gazeta qog'ozlariga gohida pista, zira o'rab berishlari, oshxonalarda esa somsa va boshqa yeguliklarni solish uchun ishlatilayotgani odamning dilini vayron qiladi. Sir emas, achchiq bo'lsa ham aytaman, ba'zan hojatxonaga gazeta tashlab qo'yishadi. So'z muqaddas emasmi? Axir, Yaratganning birgina "BO'L" degan so'zi bilan o'n sakkiz ming olam vujudga kelgan bo'lsa, so'z uchun bundan oshiqroq ta'rif bormikan? So'zni sayqal etuvchi gazetani maishiy xizmat ko'rsatuvchi buyumga aylantirishdan ortiq xo'rlik bo'lmasa kerak matbuotga. Lekin bir haqiqat mavjud: matbuot xo'rlangani bilan yashayveradi, o'lmaydi! Ammo uni xo'rlagan millatning ma'naviyati yashay olmaydi!

Maftuna KARIMOVA

O'ttiz yil axtarib topilmagan so'z

Yonilgi tashiydigan mashinalarning yangidan yangilari chiqib, ko'zimizni quvnatmoqda. Ammo ularning vazifalarini uqtirib turuvchi yorliqnamo yozuvlar kishining ensasini qotirar darajada g'alizlashibmi, bachkanalashibmi bormoqda. O'rta va keksa avlod vakillari yaxshi eslashadi:

90-yillarning boshlariga qadar neft mahsulotlarini tashishga mo'ljallangan sisternali mashinalarning biqiniga "огне-опасно" degan yozuv bitilgan bo'lardi. Tilimizga davlat tili maqomi berilgach, bu ta'kid ham o'zbekchalashdi. "Bilgir" mutaxassislar uning o'rniga "yong'indan xavfli" deb yozadigan bo'lishdi. Elchilik-da, so'zdan og'rinadigan kuyunchaklar barmog'ini bizgiz qilib, bu "kashfiyot" mualliflarini turli minbarlardan kalaka qila bosh-



l a s h - di. Oshig'ich yangi birikma o'ylab topildi: endi ko'chalardan g'izillab o'tib-qaytayotgan benzin tashuvchi mashinalar yonboshidagi "yong'in xavfi" degan ogohlantiruvchi yozuv bilan odamlarning ensasini qotiradigan bo'ldi.


Yana tanqid, yana ta'na! Nahot endi birgina "orheonacho" degan so'zning muqobilini topish shunchalik qiyin bo'lsa. Yo'q, mushkul emas ekan, topishdi harqalay. To'g'ri, biroz uzunroq, lekin o'qigan odamning asabini bir tirnab qo'yishga "yaraydi". "Yong'in jihatidan olganda xavfli". Oxirida o'qlog'dek undov belgisi ham bor.

Nima balo, tilni masxara qilmoqchimi bu-lar, deb yuborasiz pirovardida. Birgina "tezyonuvchan" degan so'zni salkam 30 yildan beri axtarishadi! Eshitgan quloqqa yomon, janob mutasaddilar!

Abdurahmon OTAQULOV,
Mohichehra QUVVATALIYEVA,
Termiz tumanidagi
19-maktab o'qituvchilari

To'rtinchi javob muhim

Maktablarda o'quvchi bilimni baholash mezonlari zamonaviy ta'lim standartlari asosida bajarilmoqda. Jahonning 30 dan ortiq mamlakatidagi ta'lim tizimida amalda bo'lgan PISA (The Programme for International Student Assessment) dasturi 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholasa, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study)da yosh darajasi cheklanmagan. Ya'ni 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasi baholanadi.



O'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish kabi dolzarb vazifalar ko'zda tutilgan. Bu talabni, birinchi navbatda, biz o'qituvchilar to'g'ri anglab yetishimiz lozim.

Ayni paytda oylik maoshimiz sezilarli oshirildi. O'quvchilar to'laonli faoliyat yuritishi uchun zamonaviy sharoitlar yaratilib, lavozim majburiyatiga kirmaydigan ortiqcha yuklamalardan ozod etilyapti.

Endi bunday tadqiqotlarning amalga oshirishida har bir o'qituvchi mas'uliyat bilan yondashgan holda darslarda nazorat ishlarini o'tkazib tursa, o'quvchilarimizda bu jarayonga tayyorgarlik o'z-o'zidan davom etaveradi. Masalan, men 5-sinflarda adabiyot darsidan o'quvchilarning bilimini mantiqiy baholashga doir test sinovini o'tkazdim. Testda savol berilmagan, ya'ni o'quvchi uchta javobga asoslanib, o'zi to'rtinchi javobni keltirib chiqarishi kerak. Olaylik, G'.G'ulom qalamiga mansub bo'lmagan asar... A) "Sog'inish", B) "Shum bola", C) "Mening o'g'rigina bolam", D) _____.

Bunda o'quvchilar noodatij tarzda test topshirishadi va fanga qiziqishi ortadi. Bu kabi kichik tadqiqotlarni turli ko'rinishda o'qituvchilar o'z darslarida qo'llasa, o'zlariga ham, o'quvchiga ham foyda bo'ladi.

Xolidaxon SHERQO'ZIYEVA,
Uchko'prik tumanidagi 11-maktab o'qituvchisi

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4225. Tiraji 9232. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonaga — (71) 233-50-55;
koti-byat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahriyot ruxsati bilan amalga oshirillishi shart.

Tahriyotga kelgan qo'lyozmalar taqiz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonaning manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 21.00

1 2 3 4 5 6